

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON-FINLANDIYA PEDAGOGIKA INSTITUTI

YAZDONOV ZIKIRILLO SHUKURILLOYEVICH

**MARKAZIY OSIYO TASAVVUF TARIQATLARI RIVOJIGA
MALOMATIYLIK VA QALANDARIYLIK G‘OYALARINING
TA’SIRI**

09.00.03 - Falsafa tarixi

**FALSAFA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2024

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

Оглавление автореферата доктора наук (DSc)

Content of the Doctoral Dissertation (DSc) Abstract

Yazdonov Zikirillo Shukurilloevich

Markaziy Osiyo tasavvuf tariqatlari rivojiga malomatiylik
va qalandariylik g‘oyalarining ta’siri.....3

Яздонов Зикирилло Шукуриллоевич

Влияние идей маломатия и каландария на развитие тасаввуф тарикатов
в Центральной Азии.....31

Yazdonov Zikirillo Shukurilloevich

Influence of the malomatiya and kalandariya ideas on the development
of tasawwuf tariqat’s in Central Asia.....61

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of works published.....66

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON-FINLANDIYA PEDAGOGIKA INSTITUTI

YAZDONOV ZIKIRILLO SHUKURILLOYEVICH

**MARKAZIY OSIYO TASAUVUF TARIQATLARI RIVOJIGA
MALOMATIYLIK VA QALANDARIYLIK G‘OYALARINING
TA’SIRI**

09.00.03 - Falsafa tarixi

**FALSAFA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.DSc/Fal213 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston-Finlandiya pedagogika institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va «ZiyonNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Negmatova Shaxzoda Shuhratovna
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Navro'zova Gulchehra Negmatovna
falsafa fanlar doktori, professor

Hoshimxonov Mo'min
falsafa fanlar doktori, professor

Siddiqov Ilyosjon Baxromovich
falsafa fanlar doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Navoiy davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «11» noyabr soat 09:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 532 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «30» oktabr kuni tarqatildi.

(2024-yil «30» oktabr dagi 17 raqamli reyestr bayonnomasi).



Namozov B.B.
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

Sharipov A.Z.
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

Safarova N.O.
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda bugungi globallashuv jarayonida falsafiy tafakkur taraqqiyoti ma'naviy madaniyatni yuksaltirish, insoniyatni axloqiy tanazzuldan saqlab qolish asoslarini yaratishga bo'lgan pragmatik g'oyalar rivoji bilan bog'liqligini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, o'rta asr mutafakkir va mutasavvufklarining falsafiy-irfoniy qarashlaridagi tariqat tajribalari bilan bog'liq insonparvarlik tamoyillarini takomillashtirishga qaratilgan zuhdu-taqvo bilan nafsu-havoni, kibru-riyoni mavh etish, odamni hayvoniy tubanliklardan insoniy yuksakliklarga undagan malomatiylikning "Botinan Haq bilan Zohiran xalq bilan" bo'lish g'oyasiga bo'lgan talabni oshirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, malomatiylik va qalandariylikning Markaziy Osiyo xalqlarining ma'naviy, ijtimoiy-madaniy muhitiga ta'siri hamda turli xalqlarni yagona maslak va g'oya atrofida birlashtirishdagi rolini, inson ma'naviy borlig'ini isloh etishdagi o'rnini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fanida tasavvuf tariqatlari, uning mazmun-mohiyati, kelib chiqish tarixi, so'fiylik tariqatining shakllanishi, so'fiy tariqatlar tizimida malomatiylik va qalandariylikning o'rni, ularning vujudga kelishi va tarqalishi, rivojlanishi va tanazzuli sabablari tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, malomatiylikning falsafiy negizlari, tasavvuf va tariqat g'oyalariga ta'siri, o'ziga xos jihatlarini, falsafiy-irfoniy masalalari qalandariylik bilan o'zaro bog'liqligi, madaniy determinantlarining falsafiy asoslariga oid keng qamrovli falsafiy tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyatga ega. O'rta asrlarda malomatiylik va qalandariylikning "Botinan Haq bilan, Zohiran xalq bilan" bo'lish g'oyasini, "tanosux", "ittihod", "hulul" tushunchalarining kirib kelishi tasavvuf ta'limoti va falsafa tarixida mutlaq haqiqatni anglashning yagona ildizlariga ega bo'lgan borliqning birligi (vahdat) va xilma-xilligi (kasrat) g'oyasining munosabatlarini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish zarurati tobora ortib bormoqda.

Mamlakatimizda ma'rifatli jamiyat barpo etish, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy sohalaridagi tub o'zgarishlar xalqimizning madaniyati tarixi, tafakkuri ildizlarini sinchiklab o'rganish davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. "Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom G'azzoliy, Bahouddin Naqshband, Abu Nasr Forobiy, Jaloliddin Rumi, Abdurahmon Jomiy, Ahmad Yassaviy kabi allomalarning nafs tarbiyasi, axloq komilligi haqidagi fikrlari asrlar mobaynida milliy shuur va ongni shakllantirishda yaqindan yordam bergan. Ularning asarlarida xalqparvarlik, mehr va muruvvat, sabr-u qanoat, adolat, halollik va poklik, bironing omonati va mulkiga xiyonat qilmaslik kabi tushunchalar ham o'z ifodasini topgan. ... tasavvuf ilmi, "fozil inson", "komil inson" haqidagi ta'limotlarda ushbu masalaga katta e'tibor qaratilgan"¹. Shu bois yoshlarni ma'naviy-axloqiy yuksaltirishda tasavvufning insonni komillikka undovchi g'oyalarini, ma'rifatli shaxs dunyoqarashini kengaytirishda va buzg'unchi ekstremistik, radikal oqimlarga qarshi kurashdagi mohiyatini ochib berish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. - Тошкент: "O'zbekiston", 2021. - Б.421.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 1-iyuldagi PF-6255-son “2021-2026 yillarga mo‘ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” farmonlari, 2018-yil 23-iyundagi PQ-3080-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma‘naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta‘lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 17-noyabrdagi 723-son “Millatlararo totuvlik, bag‘rikenglik va hamjihatlikni ta‘minlash bo‘yicha jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” qarorlari, shuningdek, sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi². Tasavvuf ta‘limotining falsafiy-irfoniy g‘oyalarini tadqiqi etish va uning ijtimoiy ongga ta‘sir etish kabi masalalar bo‘yicha ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta‘lim muassasalari, jumladan, Islamic Supreme Council of America (AQSh), University of Western Ontario (Kanada), Disle university (Turkiya), Al-Azhar university (Misr, Qohira), School of Culture, religions and politics in Asia (Buyuk Britaniya), Peace Research Institute Frankfurt, Centre of Scientific investigation of Civil Society (Germaniya), Sankt-Peterburg davlat universiteti (Rossiya), O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Buxoro davlat universiteti, Samarqand davlat universiteti, O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, O‘zbekiston milliy universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti (O‘zbekiston) tomonidan fundamental tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Markaziy Osiyo falsafiy-irfoniy qarashlarining umumtasavvufiy qarashlar hamda ilm, hikmat, mushohada va ma‘rifatga undovchi komillik mezonlarining inson ma‘naviy taraqqiyotiga ta‘siri bo‘yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda

² Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi <https://www.en.hs-furtwangen.de>; <https://www.en.uni-muenchen.de>; <https://www.univ-lille.fr>; <https://www.lse.edu>; <https://www.umich.edu>; <https://www.doshisha.ac.jp>; <https://www.utoronto.edu>; <https://www.cbu.ca>; <https://www.unn.ru>; <http://library.fes.de/>; <https://www.ritsumei.ac.jp/> va boshqa elektron manbalar asosida tayyorlangan.

quyidagi ilmiy natijalar olingan: diniy dunyoqarashga, uning ajralmas qismi – tasavvuf ilmiga retrospektiv yondashuv amalga oshirilgan. Markaziy Osiyo xalqlari diniy qarashlaridagi ezoterik va teomifologik tasavvurlar, diaxron va sinxron kommunikativ munosabatlar ilmiy asoslangan; Markaziy Osiyo xalqlarining jahon hamjamiyati bilan madaniy, diniy, etnodemografik jihatlar, milliy-madaniy munosabatlarining ijtimoiy taraqqiyotga ta'siri ochib berilgan; tasavvuf ta'limotining yangilanishi va uni o'rganishga yondashuv asoslari ishlab chiqilgan; so'fiylik ta'limotlari namoyandalarining ijtimoiy-axloqiy qarashlari va mumtoz tasavvuf davri g'oyalarining inson kamolotiga ta'siri aniqlangan; malomatiylik, qalandariylik va boshqa tariqatlarning ilmiy-ma'naviy merosi tadqiqi etilgan.

Dunyoda tasavvuf tariqatlari bilan bog'liq masalalarni o'rganish bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: tasavvuf va uning o'ziga xosligi, u asosida shakllangan tariqatlar, oqimlar, ularning falsafiy masalalari; tasavvufda falsafiy-irfoniy qarashlarning dunyoni bilish hamda diniy bag'rikenglikning ochib berishiga oid; inson muammosi va uning ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy o'ziga xosliklari; tasavvufiy ta'limotlar tarixini yanada boyitishda Markaziy Osiyo mumtoz tasavvuf tariqatlari ma'naviy-axloqiy g'oyalarining insonparvarlik ahamiyatini asoslash; Markaziy Osiyo tasavvuf tariqatlari rivojiga malomatiylik va qalandariylik g'oyalarining ta'sirini ochib berishga doir tadqiqotlar shular jumlasidandir.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Markaziy Osiyo so'fiylik tariqatlari, ta'limotlari, uning umuminsoniy mohiyati xususida qator tadqiqotlar e'lon qilingan. Xususan, so'fiylik qarashlari va so'fiyona tariqatlarning shakllanishi, tarixi bo'yicha xorijlik sharqshunos olimlar A.Shimmel, A.Knish, Dj.S.Trimingem, I.Nettona, C.Brockelman, A.Rizvi, X.Algara, A.Arberri, H.Rittera, K.Addasa, Dj.Boldika, X.Palmera, A.Chatak tomonidan amalga oshirilgan izlanishlarda malomatiylik va qalandariylik tarixi, ularning vujudga kelishi xususida fikr yuritiladi³.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari olimlari A.Xismatulin, A.Akimushkin, F.Mayer, A.Troitskaya, A.Snesarev, V.Vereshaginlar tadqiqotlari so'fiy tariqatlar tizimida malomatiylik va qalandariylikning tariqatlar rivojidadagi o'rni va ularning faoliyatlari, yashash tarzlari, belgilari, tasavvufdagi tutgan o'rnini ochib berishda tarixiy ahamiyat kasb etadi⁴.

³ Шиммель А. Мир исламского мистицизма. / Пер. с англ. Н.И.Пригариной, А.С.Раппопорта. - М.: Алейта, Энигма, 2000; Кныш А.Д. Мусульманский мистизм: Краткая история. - Москва – Санкт -Петербург. «Диля», 2004. - 184 с.; Тримингэм Дж.С. Суфийские ордены в исламе / Пер. с англ. О.Ф. Акимушкина. – М-Л. 1989; Netton I. The Breath of Felicity: Adab, Ahwal, Maqamat and Abu Najib al-Suhrawardi, Classical Persian Sufism from its Origin to Rumi. London, N.Y., 1993; Brockelman C. Geschichte der Arabischen Litteratur. Vol. 3, Leiden E.J. Brill, 1943; Rizvi A. A History of Sufism in India. New Dehli.Vol.2, 1968. P. 397-398; Algar H. the Path of God's Bondsmen From Origin to Return: A Sufi Compendium by Najm ad-Din Razi. Delmar, NY, 1982; Arberry A. Sufism: An account of the mystics of Islam.5th ed. London, 1969; The Mystics of Islam. Cambridge, 1974; The Doctrine of Sufis. Cambridge reprinted, 1991; Ritter H. Das Meer der Seele. Leiden, 1955.P. 473-476; Addas C. The Quest for Red Sulphur. Cambridge, 1993.P. 239-241; Baldick. J. Mystical Islam: An Introduction to Sufism. London, 1989; Palmer E.H. Oriental Mysticism. London, 1969; Çatak A. “Shabeddin Suhreverdi hayati eserleri ve tasavvuf analizi”. - Yenimahalle/Ankara: “Afşar Matbaası”, 2012;

⁴ Хисматулин А.А. Рекомендации по использованию: Ответственный редактор О. Ф. Акимушкин. — СПб.: Центр “Петербургское Востоковедение”, 1996. - 208 с.; Акимушкин О. Ф. Тарих-и Кашгар: Тюркоязычная хроника владетелей Восточного Туркестана по конец XVII в. / Изд. текста факсимиле, введение и указатели.

Yurtimiz olimlari I.M.Mo‘minov, M.N.Boltayev, M.M.Xayrullayev, B.O.To‘rayev, S.K.Karimov, R.T.Shodiyev, G.N.Navro‘zova, A.A.Xuseynova, N.O.Safarova, J.M.Xolmo‘minov, M.Hoshimxonovlarning ilmiy ishlarini alohida ta’kidlab o‘tish maqsadga muvofiq⁵. Shuningdek, N.Komilov, S.Rafiddinov, I.Ostonaqulov, I.Siddiqov, B.Namozov, G.Yunusova, O.Sharipova, F.Muzaffarov Sh.Negmatova, X.Rahmatova va N.To‘ychiyevalarning mavzu doirasidagi tadqiqotlari, ilmiy taqiqotni tarixan chuqurroq o‘rganishda muhim ahamiyatga ega⁶.

Mavzu doirasida qilingan tadqiqotlar so‘fiylik tarixi, maktablari, malomatiylik va qalandariylikning tariqatlar tizimidagi o‘rniga e’tibor qaratilgan. Markaziy Osiyoda shakllangan qalandariylik va malomatiylikning falsafiy-irfoniy tomonlari o‘xshash va farqli jihatlari falsafiy jihatdan ochib berilmagan. Shu ma’noda ushbu tadqiqot amalga oshirilgan ishlardan farqli ravishda so‘fiylik oqimlari, harakatlari ularning islomiy negizlari, Markaziy Osiyodagi tariqatchilik va irfon falsafasi, ularning jamiyat va inson hayotiga, ijtimoiy-madaniy muhitga ta’siri, o‘rta asr falsafiy-irfoniy fikrlar rivojidadagi o‘rni, tariqat tajribalari takomilidagi rolining tadqiq etishga e’tibor qaratilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti ilmiy tadqiqot ishlari

Акимущкина О. Ф. СПб.: «Петербургское востоковедение», 2001; Meier F. Zwei Abhandlungen iiber die Naqsbandiya. Stuttgart-Beirut 1994; Троицкая А.Л. Из Прошлого Каландаров И Магдахов В Узбекистане // Домусульманские Верования И Обряды В Средней Азии. – М.: Наука, 1975. 191-223 С.; Снесарев Г.П. Под Небом Хорезма. – М.: Мысл, 1973. - 160 С; Верешагин В.В. От Оренбурга До Ташкента. – М. 1867-1868. - 129 с.

⁵ Мўминов И.Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. -Т.: 1968; Болтаев А. Мавлоно Яъқуби Чархий ўз устози Баҳоуддин Нақшбанд.Ислом тафаккури. Илмий-маърифий, диний-маданий, ахборот нашри. -Тошкент, 2020; Сафарова Н.О. Хожагон тасаввуфий таълимотида маънавий-ахлоқий кадрятлар масаласи. Фалсафа фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. Тошкент. 2002; Хайруллаев М. Уйғониш даври ва Шарқ мутафаккири. – Т: 1971; Тураев Б.Онтология, гносеология, логика ва фан фалсафаси муаммолари // Танланган асарлар 1жилд. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти · Sep 25, 2015; Каримов С. Шарқ тафаккури ва жамият тараккиёти. – Самарканд. СамДУ нашриёти, 2020; Шодиев Р. Суфизм в духовной жизни народов Средней Азии (IX-XIII вв.): Автор.дис. док.фил. наук. – Ташкент, 1993; Наврўзова Г.Н. Нақшбандийлик тасавуфий таълимоти ва баркамол инсон тарбияси. – Фал.фан.док.дисс. –Т.: 2002; Хусейнова А. Шарқ мутафаккирлари дунёқарашида умуминсоний кадрятлар. –Т.: Paradigma, 2018; Сафарова Н.О. Хожагон тасаввуфий таълимотида маънавий-ахлоқий кадрятлар масаласи. Фалс. фанл.номзоди илмий дар.олиш учун ёзилган.диссертацияси. –Тошкент. 2002; Xolmo‘minov J.M. Vahdatul-vujud falsafasi va uning naqshbandiya ta’limotiga ta’siri. Falsafa fanlari dok. ilmiy darajasini olish uchun disser.avtoreferati. –Toshkent, 2020; M. Xoшимхонов. Машраби мўътабар ўзум. Манография. –Т.: 2001.

⁶ Комилов Н. Тасаввуф. 1-китоб. –Т.: “Ёзувчи”, 1997., М; Рафиддинов С. Қаландар атамасининг этимологияси ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, – Тошкент: 1998. № 5. – Б. 60-64. Остонакулов И. Муҳаммад Сиддиқ Рушдий ва унинг “Тазкират ул-авлиёи туркий”асари. – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2007; Siddiqov I. “O‘rta asr islom sharqidagi gnoseologik va teologik qarashlarning o‘zaro sintezlashuvi: tarixiy-falsafiy tahlil” falsafa fanlari dok. ilmiy darajasini olish uchun disser.avtoreferati. –Buxoro, 2022; Намозов Б. Муҳаммад Порсонинг фалсафий таълимоти. Монография. –Тошкент: “Мумтоз”, 2015. –Б. 176., Юнусова Г. Ўзликни англашда хотиранинг ўрни ва роли. (Абдиқодир Гийлоний асарларининг фалсафий таҳлили. –Т.: Chashma print, 2013; Шарипова О.Т. Абдухлоқ Гиждувоний ҳаёти ва тасаввуфий мероси. –Т.: Фан, 2008; Музаффаров Ф.Д. Имом Ғаззолийнинг жаҳон фалсафий фанлар тараккиётидаги ўрни ва роли. (DSc) Диссертация. –Бухоро, 2022; Рахматова Х. Хожа Ахрор Валийнинг ижтимоий-фалсафий қарашлари. –Т.: Адиб, 2014; Негматова Ш.Ш. Ўзбекистонда соғлом рақобатни ривожлантиришнинг маънавий, ахлоқий ва ҳуқуқий асослари. – Тошкент.: “Фан” 2016, -300 б. Тўйчиева Н. Марказий Осиёда қаландарийлик тарихи. Монография. –Тошкент: 2022.

rejasiga muvofiq II band “O‘zbekiston hududlaridagi tarixiy-madaniy an’analar va ularning zamonaviy ko‘rinishlarini targ‘ib etish muammolari” (2021-2025 yy) tadqiqot yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi malomatiylik va qalandariylik g‘oyalarining Markaziy Osiyo tariqatlariga ta’siri va uning jamiyat ma’naviy hayotidagi o‘rnini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

malomatiylikning vujudga kelishi va tarqalishi xususidagi qarashlar tahlili asosida uning Markaziy Osiyo xalqlari ijtimoiy-madaniy hayotidagi o‘rnini asoslab berish;

malomatiylik g‘oyalarini o‘rganishning nazariy manbalari va metodologik masalalarini tadqiq etish;

malomatiylik g‘oyalarining qalandariylikda namoyon bo‘lish xususiyatlari va ijtimoiy-ma’naviy muhitiga ta’sirini ochib berish;

malomatiylik va qalandariylik tajribalarining tasavvuf tamoyillari hamda axloqiy g‘oyalari takomilidagi o‘rnini asoslash;

Markaziy Osiyoda vujudga kelgan tariqatlar g‘oyalarining malomatiylik va qalandariylik g‘oyalari bilan aloqadorligi hamda madaniy determinantlarini ochib berish;

Markaziy Osiyo so‘fiylik tariqatlari axloqiy tamoyillarining yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini asoslash va undan samarali foydalanish yuzasidan taklif-tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obykti sifatida Markaziy Osiyoda tasavvuf tariqatlarining shakllanishi va o‘zaro bir-biriga ta’sir etish jarayoni tanlangan.

Tadqiqotning predmeti Sulamiyning “Risolai malomatiya” va “Risolai qalandariya”, Umar Suhravardiyning “Avorif ul-ma’orif”, Muhammad Porsoning (Fasl ul-xitob) asarlari asosida malomatiylik va qalandariylik g‘oyalarining Markaziy Osiyo tariqatlariga ta’sirini tadqiq etish bilan belgilanadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, kompleks yondashuv, qiyosiy tahlil, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, retrospektiv tahlil, dialektik, sinergetik, germenevtik kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

malomatiylik va qalandariylikning ixlos, sidq, faqrlik kategoriyalari o‘rta asrlarda Markaziy Osiyodagi ayrim tasavvuf tariqatlarida vujudga kelgan riyo, kibr, ujb kabi illatlarga qarshi kurashda va inson ma’naviy borlig‘ining isloh etishda motivatsion vosita (harakatlantiruvchi kuch) ekanligi isbotlangan;

malomatiylik va qalandariylikning “Botinan Haq bilan, Zohiran xalq bilan” bo‘lish g‘oyasi Markaziy Osiyo xalqlarining ma’naviy, ijtimoiy-madaniy muhitiga ta’siri hamda turli xalqlarni yagona maslak va g‘oya atrofida birlashtirishga xizmat qilganligi falsafiy asoslangan;

malomatiylik va qalandariylik tariqatlariga “tanosux”, “ittihod”, “hulul” tushunchalarining kirib kelishi tasavvuf ta’limoti va falsafa tarixida mutlaq haqiqatni anglashning yagona ildizlariga ega bo‘lgan borliqning birligi (vahdat) va xilma-xilligi (kasrat) g‘oyasiga zid ekanligi ochib berilgan;

malomatiylik ta'limotidagi inson ichki olamini poklash, nafsni tiyish, qalbni tasfiya (poklanish) etish orqali ruhiy-ma'naviy yuksalish tamoyillari tasavvufning filantropiya (saxovatpeshalik) va insonparvarlik g'oyalari bilan dialektik aloqador ekanligi mantiqiy dalillangan;

yoshlarni ma'naviy-axloqiy yuksaltirishda tasavvufning insonni komillikka undovchi "qalbni poklash, "vujud pokligi", "nafs tarbiyasi", "o'zini-o'zi takomillashtirish", "sabr-qanoat"li bo'lish g'oyalarining ma'rifatli shaxs dunyoqarashini kengaytirishda va buzg'unchi ekstremistik, radikal oqimlarga qarshi kurashda substansional asosga ega ekanligi aniqlashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Markaziy Osiyo tasavvuf tariqatlarining shakllanishi, falsafiy irfoniy ildizlari axloqiy tamoyillarining jamiyat va inson ma'naviy olamiga ta'siri, ilk so'fiylik an'analarning ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosida insonning zohiriy va botiniy olamini poklash tarbiyalash asosida komil shaxslarni shakllantirishdagi ahamiyati ochib berilgan;

o'lka xalqlari madaniyatida malomatiylik va qalandariylikning "Botinan Haq bilan Zohiran xalq bilan" bo'lish tamoyilining irfoniy-falsafiy mohiyatidagi sof e'tiqodga erishish, sabr-qanoatli bo'lish, bag'irikenglik, insonparvarlik, sidqidillik, nafsni tarbiyalash, qalb pokligiga amal qilishga undashi asoslab berilgan;

mumtoz davr tasavvuf tariqatlaridagi sof e'tiqodga erishish, adolatli, saxovatli bo'lish, bag'irikenglik, zulmga yo'l qo'ymaslik, nafsni jilovlash, sabr-qanoatli bo'lishga oid g'oyalarning ijtimoiy madaniy hayotga ta'siri, umuminsoniy qadriyatlarga uyg'unligi, ma'naviy-axloqiy tamoyillarining insoniy fazilatlarini shakllantirish, qalbni poklash asosida e'tiqodi mustahkam shaxslarni tarbiyalashdagi nazariy va amaliy ahamiyati aniqlashtirilgan;

tasavvufiy ta'limotlarda riyoga qarshi ixlos, ujbga qarshi faqrlik, xokisorlik, islom aqidasi asosi "tavhid" g'oyasi atrofida birlashishga undovchi tajribadan o'tgan diniy-ma'rifiy, irfoniy falsafiy g'oyalardan yosh avlodda falsafiy-tasavvufiy qarashlar, tariqat va ta'limotlar, nafs tarbiyasi, axloqiy tarbiya, ma'naviy tarbiya, bag'irikenglikka oid qarashlarni yanada chuqur o'rganish ilm-ma'rifatga targ'ib etuvchi amaliy ishlarni takomillashtirish, yangi bosqichga ko'tarish bo'yicha konstruktiv takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar birlamchi manbalar va qo'lyozmalardan, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalardan olinganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo'yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqotda ilgari surilgan konseptual g'oyalardan inson qadri yanada yuksalayotgan Yangi O'zbekistonda Markaziy Osiyo mutafakkirlari ilmiy merosini, malomatiylik va qalandariylikning o'ziga xos jihatlarini navbatdagi ilmiy ishlarda faylasuflar, mutasavviflar g'oyalari bilan qiyosiy tahlil qilishda, o'rta asr so'fiylik ta'limotlari genezisi, axloqiy-tarbiyaviy mohiyatini o'rganishga oid

tadqiqotlarda, jahon hamjamiyatida islomning insonparvarlik mohiyatini ochib berish, zamonaviy jamiyat yoshlarda komillik fazilatlarini, intellektual, ma'naviy va axloqiy rivojlanishni shakllantirishda, tasavvufiy ta'limotlarning murosa, ijtimoiy hamkorlik va millatlararo hamjihatlik, g'oyalarini, uning milliy, diniy, ijtimoiy-siyosiy, umuminsoniy va umumbashariy ko'rinishlarini tadqiq etishda, shuningdek, "Falsafa tarixi", "Tasavvuf falsafasi", "Tasavvuf tarixi", "Tasavvuf hermenevtikasi", "Dinshunoslik" fanlari mazmunining nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish va boyitishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan xulosalardan "Ma'naviyat va ma'rifat" markazlarining tarbiyaviy faoliyatida, fuqarolik jamiyati institutlarining inson manfaatlarini himoya qilish, korrupsiyaga qarshi murosasiz muhitni yaratish, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish va gender tenglikni ta'minlash faoliyatida, ta'lim muassasalarida yoshlarni murosalilik malakalarini shakllantirishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirishda, shuningdek, ijtimoiy sohada faoliyat olib boruvchi nodavlat-notijorat tashkilotlar va mahallalar faoliyatlarida, tasavvuf tarixi bilan bog'liq ilmiy asoslangan targ'ibot materiallari, tasavvufga oid kitoblar, fuqarolarning diniy, ma'naviy va intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, tarixiy-madaniy merosimiz namunalarini har tomonlama chuqur o'rganish, buyuk alloma va mutafakkirlarimizning jahon ilm-fani va sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan beqiyos hissasini targ'ib etish, yosh avlodni buyuk ma'naviy merosga hurmat, mehr va sadoqat ruhida tarbiyalashga qaratilgan ishlarning natijadorligini oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Malomatiylik va qalandariylik g'oyalarning Markaziy Osiyo tariqatlariga ta'sirini tadqiq etish jarayonida olingan ilmiy natijalar asosida:

malomatiylik va qalandariylikning ixlos, sidq, faqrlik kategoriyalari o'rta asrlarda Markaziy Osiyodagi ayrim tasavvuf tariqatlarida vujudga kelgan riyo, kibr, ujb kabi illatlarga qarshi kurashda va inson ma'naviy borlig'ining isloh etishda motivatsion vosita (harakatlantiruvchi kuch) ekanligiga oid ilmiy xulosalar, taklif va tavsiyalardan "Imkon" fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va inson taraqqiyoti markazining 22/01/01-raqam "Mahallalarda yoshlarning diniy ekstremizm va missionerlik ta'siriga tushib qolishni oldini olishda davlat organlari bilan ijtimoiy sheriklikni yo'lga qo'yish" (2022 y) grant loyihasi doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda hamda O'zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash "Nuroniylar" jamg'armasining 2023-2024 yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlar dasturining I "Keksa avlod vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va yoshlar tarbiyasida nuroniylarning o'rnini oshirish" bandi ijrosini ta'minlashda foydalanilgan ("Imkon" fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va inson taraqqiyoti markazining 2024-yil 13-iyundagi 24/9-son ma'lumotnomasi va O'zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash "Nuroniylar" jamg'armasining 2024-yil 19-iyundagi 05-01/265-son ma'lumotnomasi). Natijada, malomatiylik va qalandariylik g'oyalari tasavvuf tariqati va ta'limotlari va falsafa tarixida mutlaq haqiqatni anglashning yagona ildizlariga ega ekanligi va nuroniylarni diniy va islomiy, tasavvufiy bilimlarini boyitishga hamda mahallalarda yoshlarning diniy

ekstremizm va missionerlik ta'siriga tushib qolishni oldini olishda davlat organlari bilan ijtimoiy sheriklikni yo'lga qo'yishda sof diniy va tasavvufiy bilimlarni qo'llashda va ta'milashga xizmat qilgan;

malomatiylik va qalandariylikning "Botinan Haq bilan, Zohiran xalq bilan" bo'lish g'oyasi Markaziy Osiyo xalqlarining ma'naviy, ijtimoiy-madaniy muhitiga ta'siri hamda turli xalqlarni yagona maslak va g'oya atrofida birlashtirishga xizmat qilganligiga oid ilmiy-nazariy xulosa taklif va tavsiyalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2024-yil uchun chora-tadbirlar dasturining III yo'nalishida belgilangan "G'oyaviy va mafkura masalasi hamda ilm-fan va ma'rifat targ'iboti" 14-band "Ijtimoiy-ma'naviy va mafkuraviy jarayonlarni tadqiq qilish texnologiyalari bo'yicha xorij tajribasini o'rganish" mavzusidagi targ'ibot ishlarini tashkil etish va o'tkazishda foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2024-yil 11-iyundagi 258-son ma'lumotnomasi). Natijada, dissertatsiyada ilgari surilgan taklif, tavsiya va xulosalardan mamlakatimizda radikalizm va diniy ekstremizmga qarshi kurash yo'nalishidagi faoliyatni tashkil etishda, yoshlar ongini turli xil yot g'oya va harakatlardan asrash va ma'naviy tarbiyani kuchaytirishda targ'ibotchilar uchun uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqishga xizmat qilgan;

malomatiylik va qalandariylik tariqatlariga "tanosux", "ittihod", "hulul" tushunchalarining kirib kelishi tasavvuf ta'limoti va falsafa tarixida mutlaq haqiqatni anglashning yagona ildizlariga ega bo'lgan borliqning birligi (vahdat) va xilma-xilligi (kasrat) g'oyasiga zid ekanligiga oid imiy-nazariy xulosalari taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining "Yoshlarni yot g'oyalar ta'siridan himoya qilish, ulardan mafkuraviy immunitetni mustahkamlash maqsadida tegishli mutaxassislarni jalb qilgan holda "jaholatga qarshi marifat" g'oyasi ostida turkum targ'ibot-tashviqot tadbirlarini tashkil etish" chora-tadbirlarining 21-bandi ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2024-yil 22-iyundagi 2-13-21-3239-son ma'lumotnomasi). Natijada mamlakatimizdagi yosh avlodda mintaqamizga xos bo'lgan so'fiyona qarashlar, tariqatlar, ta'limotlardagi nafs tarbiyasi axloqiy tarbiya, ma'naviy tarbiya, bag'rikenglikka oid qarashlarini yanada chuqur o'rganishga xizmat qilgan;

malomatiylik ta'limotidagi inson ichki olamini poklash, nafsni tiyish, qalbni tasfiya (poklanish) etish orqali ruhiy-ma'naviy yuksalish tamoyillari tasavvufning filantropiya (saxovatpeshalik) va insonparvarlik g'oyalari bilan dialektik aloqador ekanligiga doir yangilik hamda taklif va tavsiyalardan Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi faoliyatida, jumladan, ijtimoiy buyurtma asosida nashr etilgan "O'rta asr Sharq allomalari va mutafakkirlari tarixiy-falsafiy merosi ensiklopediyasi"ni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2024-yil 26-iyundagi 02/267-son ma'lumotnomasi). Natijada, nashr etilgan ensiklopediyaning mazmunan takomillashtirishga xizmat qilgan;

yoshlarni ma'naviy-axloqiy yuksaltirishda tasavvufning insonni komillikka undovchi "qalbni poklash, "vujud pokligi", "nafs tarbiyasi", "o'zini-o'zi takomillashtirish", "sabr-qanoat"li bo'lish g'oyalari ma'rifatli shaxs dunyoqarashini kengaytirishda va buzg'unchi ekstremistik, radikal oqimlarga

qarshi kurashda substansional asosga egaligiga doir xulosalar, taklif va tavsiyalardan Samarqand viloyati teleradiokompaniyasi tomonidan 2023-yil 31-mart kuni efirga uzatilgan “Kun mavzusi” eshittirishining ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyati teleradiokompaniyasining 2024-yil 12-iyundagi 01-07/143-son ma’lumotnomasi). Natijada, tinglovchilarning tasavvuf, falsafiy merosi, tasavvuf allomalarining go’zallik, inson axloqi va malomatiylik va qalandariylik g’oyalaridagi ezgu g’oya va qarashlarni keng xalq ommasiga yetkazish va shu asosda yoshlarda sog’lom turmush tarzi va dunyoqarashni o’zgarishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 11 ta xalqaro, 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma’ruza ko’rinishida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o’tgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo’yicha 28 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, O’zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining dissertasiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola (10 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to’rt bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 223 bet.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Kirish**” qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo’nalishlariga mosligi, dissertatsiya mavzusi bo’yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o’rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog’liqligi hamda tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti usullari yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchligi, ilmiy va amaliy ahamiyati tavsiflangan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Markaziy Osiyoda shakllangan tasavvuf tariqatlarida malomatiylik va qalandariylik g’oyalarini tadqiq qilishning nazariy – metodologik asoslari**” deb nomlangan bo’lib, unda Markaziy Osiyodagi ijtimoiy-tarixiy, madaniy-ma’naviy muhit, malomatiylik va qalandariylikning shakllanishi, malomatiylikka doir ilmiy manbalar tahlili amalga oshirilgan.

Dissertatsiyada Markaziy Osiyo o’lkalarida islom dini ta’limotlari zahirida zohidlik, darveshlik, so’fiylik futuvvat, malomatiylik, hurufiylik qalandariylik harakatlari, oqimlari, tariqatlar va ta’limotlar vujudga kelib ijtimoiy-madaniy hayotga, ijtimoiy ongga, inson tafakkuriga o’ziga xos ta’sir ko’rsatgani, Movarounnahr va Xuroson o’lkalaridagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatga, madaniy-ma’naviy muhitga singib borib, kishilar dunyoqarashida olam va odam munosabatlari, Yaratuvchi, inson, tabiat hamda koinot haqidagi qarashlarining

takomillashishiga, o‘z o‘rnida o‘zlikni anglashga undagani manbalar asosida tahlil etilgan.

Tadqiqotchi mumtoz so‘fiylik davri sifatida belgilangan hijriy II va IV asrlardan keyin tasavvuf va uning ayrim firqalar, shayxlarning xatti-harakati salbiy tomonga o‘zgarib, ma’no yo‘qolib borgani, ularning o‘rnini rasm-rusm, taqlid, “riyo”, “kibr” egallab olganini tasavvufga bag‘ishlangan nodir manbalar asosida tadqiq etilgan. Buxorolik tasavvuf nazariyasi asoschilaridan biri shayx Abu Bakr Is’hoq Kalobodiyning “Nihoyat ma’no ketib, nom qoldi. Mutasavviflikni tilda da’vo qilganlar faoliyatlari bilan tasavvuf yo‘lini buzib, inkor etdilar. So‘fiylikni xalqqa tushuntirishga qodir kishilar esa haqiqiy mohiyatni yashirib, tasavvufga hech aloqasi yo‘q narsalarni unga olib kirdilar. Natijada, odamlarning ko‘nglida tasavvufga nisbatan nafrat uyg‘ondi, vijdonlari so‘fiylikdan sovidi”⁷, degan qarashlarining mohiyatini ochib bergan.

O‘rta asrning yirik tasavvuf allomasi Abu Bakr Ishoq Kalobodiy fikriga ko‘ra, “tasavvufni bilmaydiganlar, o‘zlarini tasavvuf ahlidan deb da’vo qilishdi. Tasavvuf ila sifatlanmaganlar, tasavvuf bilan ziynatlanishdi. Tasaavvufni tili bilan tasdiqlaganlar amali bilan uni inkor qilishdi”⁸. Ilk so‘fiylarning so‘z, hol va vajdlarini ularning farqli tarzda mubolag‘alab o‘zlariga nisbat berganlari, xalq orasida mavqe va e’tibor topishni maqsad qilib olganlari tasavvufni tanazzulga boshlagan. Riyo kibr, ujb nafsga berilish holatlari keskin tus olgan. Bu ahvol XI asrda o‘zining “Kashful-mahjub” asari bilan nom qozongan Abul Hasan Hujviriy fikriga ko‘ra, IX-X asrlarda Xurosonda faoliyatda bo‘lgan o‘n ikkita asosiy so‘fiylik harakatlari zamirida XI asr oxirlaridan keying davrlarga qadar ba’zilari hoairga qadar mavjud bo‘lgan tariqatlar shakllangan⁹. XII asr boshlarida Abu Homid G‘azzoliy “Ehyoyi ulum ad-din” asari paydo bo‘lgunga qadar tasavvuf tasavvuf islom olamida yarimqonuniy holatda bo‘lib uning vakillari esa rasmiy sunniy islomga zid keluvchi mavqeini egallaganlar. Biroq keyinchalik rasmiy sunniy shariat mo’tadil tasavvufni e’tirof eta boshladi¹⁰. Demak, so‘fiylik ta’limotlaridagi tanazzul o‘z davrida malomatiylikning tarix sahnasiga chiqishiga zamin hozirlagan omillardan biri bo‘la oladi.

Tadqiqotchi malomatiylik tarixan takyaxonalar, xonaqohlar paydo bo‘lib, so‘fiylarning xalqdan ajralganidan keyin vujudga kelgan degan qarashlar ma’lum ma’noda haqiqatga yaqinligini, bu haqiqat malomatiylik o‘zi nima?”, “Kimni chinakam malomatiy kishi?” degan savollarga javob topishga harakat qilish natijasida oydinlashib borgani, ayni paytda, malomatiylikning vujudga kelish tarixi, mazmuni, mohiyati, amaliy jihatlari xususida o‘rtaga tashlangan fikr va qarashlar ba’zan bir-biridan ancha uzoq bo‘lsa, ba’zan qarama-qarshi mazmunga ega ekanligini ta’kidlagan.

⁷Абу Бакр Калободий. Ат-аъарруф ли мазхаби аҳлит-тасаввуф (тасаввуф аҳлининг йўли билан танишув) / Масъул муҳаррир. Ж.Раупов. -Тошкент: Азмир нашр принт, 2022. - Б.8.

⁸Абу Бакр Калободий. Ат-аъарруф ли мазхаби аҳлит-тасаввуф (тасаввуф аҳлининг йўли билан танишув) / Масъул муҳаррир. Ж.Раупов. -Тошкент: Азмир нашр принт, 2022. - Б.8.

⁹Акимускин О.Ф. Суфийские братства: сложный узел проблем. / Под ред. и предисл. О.Ф.Акимускина. – М.: Наука, 1989. – Б.7.

¹⁰Петрушевский И.П. Ислам в Иране в VII-XV веках. - Ленинград : Изд-во Ленингр. ун-та, 1966. – С. 330.

Dissertatsiyada Abdurahmon Sulamiyning (vaf.mil.1021y.) “Risolai malomatiyya” nomli asari malomatiylikka bag‘ishlangan eng qadimiy va ishonchli manbalardan biri sifatida e’tirof etilgan. as-Suhravardiy malomatiyni mustaqil bir toifa sifatida, uning darajasini ko‘rsatish uchun shunday ta’riflaydi: Malomatiy kishining o‘z holatini o‘zgalardan yashirishi, bu rashkning bir ko‘rinishi. Kimki o‘z mahbubi bilan xoli qolsa, uni begona ko‘rishini xohlamaydi. O‘z sevgilisiga bo‘lgan sevgisini begonalar ko‘rishidan nafrat qiluvchi kimsa, sof muhabbatga erishadi. Ushbu holat sharaflı bo‘lsada, sufiy tutgan yo‘lda bu illat va nuqsondir. Shu bois, malomatiy mutasavvifdan oldinda va sufiydan orqadadir. As-Suhravardining ta’rifiga ko‘ra, u malomatiyni endi tasavvuf yo‘liga kirgan mutasavvif va sayru-sulukda yuksak martabalarga erishgan sufiy o‘rtasiga qo‘ygani uqtirilgan¹¹.

Malomatiylik so‘zi لوم اسد تحقاق arab tilidan tarjima qilinganda “lavm” o‘zagidan yasalgan qiynoq, aziyat yetkazish, nafsga shafqat qilmaslik malomat va malomatiylikni o‘ziga xos g‘oya, mafkura, nazariya va yoki ishqning bir holi deyish mumkin. Najmiddin Kubro o‘z tariqatini yaratishda malomatiylik maslagi va tajribalariga ham asoslangan¹². Demak, yuqorida tasavvufning turli davrlardagi tanazzuli, yo‘ldan ozishlar, xalqdan ajralishlar oqibati sifatida qaralgan. Malomatiylar tasavvuf ichidan tasavvufchilarga qarshi chiqqan bir jamoa bo‘lib, Haq visoliga yetishmoq uchun ular zikrga emas, balki fikrga ahamiyat berish ustuvorlik qilgan. Ahli malomatga ko‘ra, Allohning dargohiga faqat “ishq” va “jazba” orqali borish mumkindir, zikr esa insonni xayollarga cho‘mib, turli mustag‘raq holatlarga, ya’ni holda mag‘lub bo‘lishga olib kelishi mumkin. Agar haqiqiy tasavvuf ilk so‘fiy va mutasavviflar yo‘lidan og‘ishmay, ma’naviy-irfoniy hayot rivoji uchun avval Xurosonda, keyinroq Turkistonda xotirjam va ruhiy-ma’naviy osudalikka olib boruvchi muhit yaratmaganida, malomatiylikning taqdiri o‘zgacha kechishiga hech kim kafolat berolmasdi. Bundan tashqari, tasavvufdan malomatiylikka, malomatiylikdan tasavvufga o‘tgan yoki har ikki oqimga mansub so‘fiy kishilar ham bo‘lgan.

Dissertatsiyada Abdurahmon Jomiy “Nafahot ul-uns”ning muqaddimasida malomatiy ekanliklarini aytganlari holda, malomat ahliga aloqasi yo‘q bir jamoa xususida, ular “ixlos”ga erishishni ilgari surib, fisq va fujurni haddan oshirganliklari, maqsadimiz xalqning bizni qiynashini ta’min etish, uning nazaridan qolish va e’tiborsiz holga ega bo‘lishdir¹³, deb ta’kidlagan. Bu tanqid so‘zlari dastlabki asl g‘oyasi va maqsadlaridan yiroqlashib, shariat qonun-qoidalariga teskari tushuncha hamda da’volarni ilgari surgan malomatchilarga qaratilgan qarashlari bo‘lgan. Ammo Navoiyning diqqat-e’tiborini jalb qilgan malomatiylik maslak buzilishigacha bo‘lgan va Sharqning Ahmad Yassaviy, Fariduddin Attor, Jaloliddin Rumiy, Abdurahmon Jomiy kabi ulug‘ ijodkorlari

¹¹ Барака А. Ал-Ҳаким ат-Термизий ва назариййатуҳу фи-л-вилоя. Т. I. - Б. 140.

¹² Шайх Нажмиддин Кубро. Тасаввуфий ҳаёт. -Т.: Мовароуннаҳр, 2004. -Б.227.

¹³ Jomiy A. Nafahotul-uns // tarjima qo‘lyozma matni. // Qo‘lyozma O‘zRFA ShI qo‘lyozmalar fondida 7286 raqami ostida saqlanadi (1886-yilda Xiva xoni M.Rahimxon Feruz topshirig‘i bilan Rahmonquli Qori o‘zbek tomonidan qilingan tarjima).

qalbini ilhomlantirgan hurfikrlik, riyozat, sidq ahli malomatiylik bo'lgani ochib berilgan.

Malomatiylardan so'fiylarni ustun qo'ygan va buning sabablarini yozib qoldirgan Shihobiddin Umar Suhravardiyning qarashlariga ko'ra, haqiqiy malomatiy tomirlarida ixlos zavqi jo'shgan, tom ma'nosi ila sidqu sadoqatga erishgan inson¹⁴. Haqiqiy komillik martabasini egallagan zotlar ana shular edi. Ular valoyatning eng yuqori darajalariga ko'tarilib bilganlar. Undan yuqorida faqat nubuvvat maqomi bor. Shayxi Akbar islom payg'ambarini ham malomatiy hisoblaydi va malomatiylik Allohga yaqinlik, ya'ni qoba qavsayn maqomi erur, degan qarashlarni ilgari suradi. Malomatiylikning islom va uning asoslari zahirida paydo bo'lgani alohida ahamiyatga ega. Zero, Qur'oni Karimning Moida surasida (54 oyat) "Malomat qiluvchining malomatidan qo'rqmaydilar"¹⁵, – deyiladi.

Xorijiy olimlardan Dj.Trimingemning "toifa" deb nomlagan so'fiylik harakatlarida ham holatni ko'rish mumkin edi va bu davrda ba'zi jamoalar harakati xalq harakatiga aylanadi. Tariqatlar shakllanib, ulardan yangi oqimlar ajralib chiqadi. Toifada muqaddas shaxsga sig'inish kuchayadi. Bu davrda juda ko'p qonun-qoidalar ishlab chiqildiki, ular shaxsning erkin ruhiy o'sishini chegaralab qo'ydi. Shaxs jamoa talabiga moslashadi va jamoa amaliyotiga bo'ysunadi¹⁶. Malomatiy, qalandarlik, darveshlik kabi boshqa tariqatlar ularning g'oyalari so'fiylikning ham turli yo'llarda rivojlanishiga ham ta'sir etgan. Shihobuddin Abu Hafs Umar as-Suhravardiy o'zining "Avorif al-maorif" asarida malomatiylik va tasavvuf ahllarini bir-biridan farqli toifalar sifatida baholab "Malomatiylar ixlosga katta e'tibor qaratadilar. Ular o'z holatlari va amallarini yashirish bilan lazzatlanadilar va buni "ixlos" deb biladilar. O'z holat va amallari namoyon bo'lib qolishi, xuddi osiy o'z gunohi ochilib qolgandek, ularni nafratlantiradi. Malomatiylik ixlosga erishuvni, uni mustahkam ushlab turishni muhim hisoblaydi, so'fiylar esa, ixlosda yo'q bo'lib ketishga harakat qiladi"¹⁷, -deb qayd etadi. Hakim at-Termiziy "ixlos"ni malomatiylar kabi eng oliy, eng oxirgi nuqta deb hisoblamagan, u o'zining "al-Akyos va-l-mug'tarrin" asarida ummatning xos kishilarini darajalariga ko'ra uch toifaga bo'lib: 1) Ulamolar – ular harom va halolni farqini biladilar, shariat yo'lidan jannatga yetaklaydilar; 2) Hikmatni anglagan ulamolar – ular seni shariatda ixlos yo'lidan qurbat manzillariga olib boradilar; 3) Kubarolar – ular ma'rifat ilmi va oliy hikmatni egallab, soflik va poklik yo'lidan seni Allohga tomon yetaklaydilar. Ixlosni malomatiylar kabi sulukdagi eng yuqori nuqta, deb bilmasdan, malomatiylik ta'limotining fundamental asoslari bilan kelishmasligi dissertatsiyada dalillangan.

Tadqiqotda Naqshbandiylik tariqati nazariyotchisi Xoja Muhammad Porso malomat uch xilga bo'lganligini asoslab bergan. Ular:

Birinchisi to'g'ri yurish;

Ikkinchisi qasd qilish;

¹⁴ Шиммель Аннемари. Мир исламского мистицизма / пер. с англ. Н. И. Пригариной, А. С. Рапопорт. 2-е изд., испр. и доп. — М.: ООО «Садра», 2012. — С. 75.

¹⁵ Иноятлов А., Зикриллаев Ф. Куръони Карим оятлари мазмун-маъносининг ўзбекча изоҳли таржимаси. - Тошкент: "Hilol Nashr", 2022. -Б.117.

¹⁶ Qarang: Тримингэм Дж.С. Суфийские ордены в исламе. - М. Наука, 1989. – С. 90.

¹⁷ عوارف المعارف // شهابالدين سهروردی. // Бухоро давлат музей-қўриқхонаси, Хужжатлар фонди 21125/11. –Б.168.

Uchinchisi tark qilish¹⁸.

To'g'ri yurish malomati shuki, bir kishi din muomalasini rioya qiladi va xalq uni malomat qiladi bu undagi xalqning yo'li bo'ladi. U hammadan forig'. Ikkinchi malomatni qasd qilish shu bo'ladi, bir kishining obro'si xalq o'rtasida paydo bo'ladi. U ular o'rtasidagi belgiga aylanadi. Dili obro'ga moyil bo'ladi. Tabiati o'shanga moyil bo'ladi. U dilini xalqdan bo'shatib, Haq zikriga mashg'ul qilishni istaydi. Shariatga hech zarari yo'q takallufni qiladi va xalq undan nafratlanadi va bu uning yo'li bo'ladi.

Tadqiqotchi qalandariylik tariqati ham o'ziga xos tarixga va tamoyillarga ega bo'lib, Markaziy Osiyo madaniyati tarixida ham o'z o'rniga ega bo'lganini, qalandarlik atamasi Abdullo Ansoriy (vaf.1089 y.), Hakim Sanoiy (vaf.1131 y.), Fariduddin Attor (vaf. 1221 y) asarlarida qo'llanilgani, Hindiston, Eron, Markaziy Osiyoda qalandar so'ziga ma'nodosh, darvesh Turkiyada Abdollar, ishqiyar, torlaklar so'zlari ishlatilganligini, Markaziy Osiyoda "qalandar", "qalandariy" atamaları tasavvufiy va badiiy adabiyotlarda ko'plab uchrashi, qalandarlik, qalandarlar, ularning faoliyati, g'oyalari va amaliyoti borasidagi qiyosiy tahlillarni amalga oshirgan.

Qadimgi lug'at va ilmiy manbalarda qalandar atamasining bir necha ma'nolari berilgan: 1). eshik tez ochilib ketmasligi uchun orqasidan qo'yiladigan tarashlanmagan (yo'nilmagan) yog'och; 2) diniy g'azallar o'qib, ham dinni targ'ib qiluvchi, ham darbadar kezuvchi darvesh; 3) tarki dunyo qilgan, dunyodan voz kechgan, tarki dunyo qilgan kishi, zohid; 4) o'zbek xalq kuylaridan birining nomi; 5). erkaklarga qo'yiladigan nom; 6) qalandarbachcha – qalandarning shogirdi; 7) qalandarxona – qalandarlar yig'iladigan va tunaydigan joy ma'nolarini anglatadi¹⁹.

Dissertant qalandariylik asoslarini ularning tarixini Ibn Battuta (1304-1369 yy), Armini Vamberi (1832-1913 yy), V.Vereshagin (1842-1914 yy)larning sayohatnomalari orqali ham o'rganish mumkinligi ta'kidlagan. Jumladan, Ibn Battuta qalandarlarga nisbatan yaxshi munosabatda bo'lib ularga xolis va mo'tadil tarzda yondashuvi alohida ahmiyatga molik. A.Vamberi, V.Vereshaginlar Markaziy Osiyo qalandarlariga mubolag'a bilan ham noxolis yondashib, ularni jamiyatning eng qoloq vakillari sifatida talqin qiladilar. O'zlarini so'fiylar deb bilgan Bobo Tohir Uryon, Sanoiy, Sa'diy Sheroziy, Hofiz, Faxriddin Iroqiy qoldirgan ma'naviy merosida qalandarlar va qalandariylik ma'lum ma'noda sharaflı daraja, maqtalغان martaba sifatida e'tirof etilgan. Shuningdek, o'rta asrning zabardast allomalari Abdullo Ansoriy, Abdurahmon Sulamiy, Suhravardiy, Jomiy, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiylar o'zlarining asarlarida obyektiv ma'lumotlarni qoldirganligini ochib bergan.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, Markaziy Osiyoda islom ilmlari rivojlanishi, tariqatlarning turli mazhablar yo'nalishlar, oqimlar bilan aralashib, tasavvufning asl mohiyatiga ko'rsatgan ta'siri muayyan davrlarda uning tanazzulini ham ko'rsatadi. Markaziy Osiyodagi tarixiy, madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar malomatiylik va qalandariylik keyingi tariqatlar takomillashuvida muhim tajribalar

¹⁸ Хожа Муҳаммад Порсо.Таҳқиқот. - Бухоро. Марказий АКМ Шарқ қўлёзмалари бўлими. INV /137 рақамли қўлёзма.

¹⁹ Рафиддинов С. Қаландарлик одоби // Ёшлик. -Тошкент, 2000. -№.3. -Б.45.

sifatida qabul qilingan. Xanafiylikning kuchli ta'siri va uning keng yoyilishi, xalqning hayot tarziga kirib borishi o'lkada mo'tadil hayot tarzini shakllantirib, malomatiylik va qalandariylik kabi tariqatlarning tarqalishiga ham imkon yaratgan. Hurfikrlilikka o'zaro birdamlikka undashi bilan odamlarni jamoaga birlashtira olgan. Har ikkala tariqatlar ham "nafs tarbiyasi", "nafsni malomatga qo'yish"da bir xil qarashga ega bo'lganlar. Ruhni poklash, botinni go'zallashtirish, solih amallarni xolislik asosida amalga oshirishni birinchi maqsadlari qilib olganlar. Malomatiylik va qalandariylik g'oyalari ularning "ixlos"ga erishish, "riyo"dan uzoqlashish, "sidq", "uns" holatlariga yetishishdagi o'ziga xos tamoyillari Markaziy Osiyoda mavjud tariqatlarga singib, irfoniylar takomillashuvda muhim ta'sirga ega bo'lgan.

Dissertatsiyaning **"Malomatiylik va qalandariylikning Markaziy Osiyo tasavvuf tariqatlarining shakllanishi va rivojlanishiga ta'siri"** deb nomlangan ikkinchi bobida Markaziy Osiyo tasavvuf tariqatlariga malomatiylik g'oyalarining ta'siri, malomatiylik tamoyillarining tariqatlarda namoyon bo'lish xususiyatlari, malomatiylik va qalandariylikning o'zaro bog'liqligi hamda madaniy determinantlari ochib berilgan. Markaziy Osiyo o'lkalarida ijtimoiy-ma'naviy, madaniy-ma'rifiy hayotga o'zining sezilarli ta'sirini ko'rsatganligi, islom olamida katta ahamiyatga ega bo'lgan "ahl al-hadis" harakati uning ma'naviy-madaniy hayotga ta'siri ochib berilgan. Ilk hijriy asrlarda paydo bo'lgan bu harakatning mohiyati hadislarni to'plab, ulardan sahihlarini tanlab olish jarayoni bilan bog'liqligi, natijada Markaziy Osiyodan ko'plab muhaddislar yetishib chiqqanligi ularning merosi hozirga qadar ma'naviy hayotni yuksaltirishga xizmat qilayotganligini asoslab berilgan.

Mintaqada ijtimoiy fikr shakllanishida muhim rol o'ynagan yana bir harakat kalom ilmi bilan bog'liq. Bu harakatni shartli ravishda ikkiga bo'lish mumkin. *Birinchi* – siyosat bilan bog'liq bo'lgan aqidaviy oqimlar va *ikkinchi* – ahl ar-ray bilan bog'liq aqidaviy mazhablar hisoblanadi. Birinchi toifaga misol qilib ummaviylardan qochib, Xurosonda panohtopgan xorijiylikni ko'rsatilgan. Ular Hirot, Sijiston, Eron cho'llarida joylashib, faoliyatlari deyarli IX-X asrlargacha yetib kelganligini, shuningdek, yuqorida zikr qilingan islomiy mazhab va oqimlardan tashqari mintaqada yahudiylar, nasroniylik, moniylik, majusiylik, buddaviylik dini vakillari yonma-yon hayot kechirganlar. Umuman olganda bunday ko'p sonli turli firqa va oqimlar, harakatlarning o'ziga xos ma'naviy-axloqiy tarbiya usullari va vositalari bo'lgan. Biroq, ba'zilar taassub va jaholatga ergashib o'z mavqeini yo'qotgan. Dissertant bular orasida malomatiylikning g'oyalaridan biri "nafs" chirkinliklarini poklash, nafs xohishlarini jilovlash ixlos va sidq tufayli haqiqatga erishish yo'llari tariqatlarning tamoyillariga aylanib borganligini ta'kidlagan. Jo'nayd Bag'dodiyning "Kufning asosi nafsning murodigadir. Negaki, Haqqa taslim bo'lishda nafsqa yaqin bo'lish yo'qdir. Agar undan yuz burmasa, u munkir bo'ladi, munkir esa begonadir"²⁰, - degan nafs haqidagi qarashlari bilan o'z fikrlarini asoslagan.

Dissertatsiyada so'fiylar va mutasavvufklar nafs yomon illat ekanligiga

²⁰ Али ибн Усман аль-Худжвири. "Раскрытие скрытого за завесы". Старейший трактат по суфизму // Перевод с английского А. Орлова. - Москва: "Единство", 2004. – С.199.

muttafiq bo‘lganliklari va unga qarshi kurashishni maqsad qilganliklari asoslab berilgan. Bu muammo Markaziy Osiyolik mutasavvuf va tariqatlar nazaridan chetda qolmagan. Mutasavvuf Abu Bakr Kalobodiyning ilmlar borasidagi qarashlarida inson nafs ofatlari ilmi, uning mohiyati, ma’rifatini, tamrinini, (ya’ni, mashaqqatini) uning xulqlari madaniyatini tushunadigan, dushmanning hiylalarini biladigan, dunyo fitnasidan boxabar bo‘lmog‘ini va fisqu-fasoddan ozod bo‘lish yo‘lini biladigan bo‘lishi kerakligini uqtirganini²¹, bu ilm ilmi hikmat, ya’ni nafs vojib (qilinishi lozim bo‘lgan) amallarga (bajarishda barqaror) qoim bo‘lsa, uning tabiati solih bo‘ladi. Abduxoliq G‘ijduvoniyaning “Ma’rifatning kamoli nimada?” deb so‘raganlarida, u kishi “Ma’rifatning chegarasi nafsni boshqarish va buning tadbiri halol narsalardangina bahramand bo‘lmoqni odat qilmoqdur”²², -deb bergan javoblari asosida “nafs”ni malomat qilish tamoyillariga hamohang g‘oyalarni tariqatlarga ta’sirini qiyosiy tahlil etgan.

Markaziy Osiyoda mavjud mahalliy madaniyatning yuksakligi, falsafiy ilmlarni egallashga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyojning kuchayishi natijasida yuzaga kelgan siyosiy-aqidaviy oqimlarga qarshi g‘oyaviy kurash zaruratining yuzaga kelishi, hukmron tuzumning ma’rifatchilik va bag‘rikenglik siyosati, ikkinchi tomondan, islom dini va uning mohiyatini anglashda ratsional, irratsional bilish uslublarining takomillashuvi falsafiy-irfoniy ta’limotlarning shakllanishi uchun muhim omil bo‘lgan. So‘fiyona ijtimoiy hayotning ma’naviy muhitni barqarorlashtirishda malomatiylik va qalandariylikning ham o‘ziga xos o‘rni bo‘lgan. Ularning g‘oyalari, an’ana va xatti-harakatlari tariqatlarga singib ketgan. Riyo va kibr, soxta shayxlarning paydo bo‘lishi malomatiylik va qalandariylikni qarama-qarshi g‘oyalar manbasi, qarshi harakat bo‘lishiga olib kelgan.

Dissertatsiyada Markaziy Osiyo tasavvuf va tariqatlari tarixi bilan shug‘ullangan olimlarning aksariyati qalandariya (qalandariylik, qalandarlik) harakat yoki tariqatining XI-XII asrlarda malomatiylik negizida vujudga kelganligini e’tirof etishi qayd etiladi. Bu harakatni Jamoliddin Soviy (vaf. 1232 y) nomi bilan bog‘lab uni tariqat asoschisi sifatida bilganlar. Qalandariylik o‘ziga xos qoidalar, odatlarga ega bo‘lgan tariqat bo‘lib, ko‘plab tasavvuf olimlari uni malomatiylikdan ajaralib chiqqanligini o‘z tadqiqotlarda ilgari surgan. Abdurahmon Sulamiy (vaf. 121 y.) “Rislatu-l-malomatiya”²³ asarida malomatiylik va qalandariylikning umumiylik va xususiylik tomonlarini ochib berib, Hamidun Qassor, Abu Hafs Haddod, Abu Usmon Hiraviylarni malomatiylik vakillari sifatida tilga olgan²⁴. Qalandarlikning maqsadi, ikki dunyodan o‘zini yiroq tutish va ikki olam uyidan chetga, uzlat qilish deyish mumkin. Qalandar biror mansab, maqomga ega bo‘lmagan, dunyoning ortiqcha g‘am-tashvishlaridan forig‘ bo‘lgan kishidir. U jamiyatga ichdan emas, tashqaridan ta’sir ko‘rsatgan, mavjud ba’zi urf-odatlarni o‘zgarishiga sabab bo‘lgan. Shu sababdan ayrim manbalarda ular “so‘fiyoni xorij”, “so‘fiyoni berun”, ya’ni, tasavvufdan, jamiyatdan tashqarida bo‘lgan so‘fiylar

²¹Намозов Б. Абу Бакр Калободий тасаввуфий қарашларининг фалсафий асослари. –Тошкент: “Фан”, 2011. - Б.42.

²² Шарипова О. Абдухолик Гиждувоний. –Бухоро: Вухоро, 2020.- Б. 13.

²³ Суламий Абу Абдурахмон Муҳаммад бин Хусайн. Рисолат-ул-маломатия.-Миср, Куллияту-л-одоб, 1942. - Б.4-5.

²⁴ Ислам: энциклопедический словарь. -М.: Наука, 1991-С.155.

bo'lib, so'fiy, malomatiy va qalandar orasida o'ziga xos farqli jihatlar ya'ni, umumiylik va xususiylik tomoni shundaki, so'fiyning qalbi xalq bilan emas, doim Haq bilan bog'liq bo'lishi, Malomatiy qilgan ibodatini xalqdan yashirishi, xalqning ta'na-yu malomatidan cho'chimaslik, hazrat Muhammad alayhissalomni malomatiylarning sardori deb bilishi, qalandar esa xalq urf-odatlarini oshkora izdan chiqaradi. Bu albatta islomda bo'lmagan yoki tarixiy shart-sharoit sabab xalqning odatlariga aylanib qolgan bid'at narsalar nazarda tutilgan. Demak, xalqning urf-odatlari ham o'ziga xos tarzda jamiyat va inson hayoti uchun ta'sir yoki aks ta'sir quvvatiga ega bo'lgan. Ular insonlarni to'g'ri yo'ldan adashtirib qo'yish ehtimoli bo'lgan, shu sabab ularni unga qarshi borishga undagan. Qalandarlar faqat majburiy farz amallarini bajarib, ortiqcha toat-ibodatga berilmaydi. Qalandarni "tajrid" va "tark" ahlidan deb bilganlar.

Dissertatsiyada IX-XI asrlarda qalandariylik malomatiylik g'oyalaridan ta'sirlanib vujudga kelganligi, qalandariylik "riyo" va "nafs tarbiyasi"da malomatiylik tamoyillarida o'zaro ta'sirga va bog'liqlikka ega ekanligi, ularning riyodan qochish, nafsni qiynash orqali yoki uni malomatga solish orqali poklash usulublari yaqinlik kasb etganligi ishonchli manbalarga tayanib qiyosiy tahlil etilgan. Malomatiylar xalq nazaridan o'zlarini chetga olishga urinuvchi, rasm-rusum va odatlardan qochuvchi toifa bo'lib, nafl va toatlari el nazarida ko'rinmaslikka intilganligini falsafiy jihatdan tahlil etilgan. Ular tashqi jihatdan so'fiylarga xos bo'lgan amallarni bajarmaydilar balki, yashirin tarzda ruhiy poklikka intiladilar. Xalq ularning toatlaridan bexabardir. Qalandariylar farz amallaridan chetga chiqmaydi, ibodatlarini esa, oshkora yoki maxfiy bajaradi. Ammo bu vaqtga kelib qalandariylar islomdan uzoqlashib ketdilar va ularni "xashaviy"larga tenglashtirish mumkin²⁵. Demak, malomatiylik va qalandariylik o'zaro aloqadorlikda hamda ta'sirda bo'lganligi, ularning tarixiy shart-sharoit, davrning o'ziga xos ijtimoiy madaniy o'zgarishlari jarayonida islomiy asoslari zaiflashganini, ularning orasida diyonat uzoqlashganlar ham paydo bo'lganligini anglash mumkin.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, malomatiylik va qalandariylik tariqatlari Markaziy Osiyoda faoliyat ko'rsatgan tariqatlar, so'fiylik qarashlariga o'z ta'sirini ko'rsatib, ularning o'ziga xos "faqr"likka asoslangan qarash va tamoyillari tariqatlarga singib borgan. O'z o'rnida tariqatlarda uchrab turgan "riyo"korlik, soxtakorlik, "kibr"lilik holatlariga qarshi kurash yo'llarini taklif qilgan. Malomatiylik va qalandariylik g'oyaviy jihatdan yaqin ekanligi ularning o'zaro aloqadorligini ko'rsatadi. Malomatiylik va qalandariylikning so'fiyona hayot tarzi "faqrlik faxrimdir", tamoyiliga tayanishi, Allohga yaqin bo'lish uchun nafslarini malomatga solishlari, qalandarlarning ham xatti-harakatlari o'z davri hamda keyingi davrlarda badiiy tafakkurga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Badiiy adabiyotda yangi so'fiyona hayot tarzini tasvirlovchi g'azallar, qit'a va boshqa janrlarning rivojlanishiga ta'sir etgan. Qalandariylik malomatiylikning bir shaxobchasi bo'lib, Malomatiylar xalq nazaridan o'zlarini chetga olishga urinuvchi, rasm-rusum va odatlardan qochuvchi toifa bo'lib, nafl va toatlari el nazarida ko'rinmaydi. Ular

²⁵Qarang: Abu Tolib Mir Obidin. Oyini qalandariy. -Tehron. 1374.

tashqi jihatdan soʻfiylarga xos boʻlgan amallarni bajarmaydilar, balki yashirin tarzda ruhiy poklikka intilganlar. Tashqaridan xalq bilan ichkaridan Haq bilan tamoyiliga amal qilganlar. Qalandariylikning badiiy adabiyotga taʼsiri “qalandarnoma”lar “qalandar” obrazlarining yaratilishiga, ular haqida chuqur maʼnoli oshiqona irfoniy gʻazallarning vujudga kelishiga imkon yaratdi. Oʻrta asrning yirik mutafakkirlari, mutasavviflari asarlaridan oʻrin oldi. Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobir Mirzo, Mashrab kabi koʻplab namoyandalarning ijodida rivojlantirildi.

Dissertatsiyaning **“Malomatiylik va qalandariylikda “nafsni malomat qilish” gʻoyasining oʻzlikni anglashdagi oʻrni”** deb nomlangan uchinchi bobida Malomatiylik tariqatida “oʻz nafsini malomat qilish” gʻoyasi va uning oʻzlikni anglash bilan bogʻliqligi masalasi, qalandariylikning inson tabiatini isloh qilishga oid tamoyillari tahlil etilgan. Markaziy Osiyoda islom ilmlari rivojlanishi ularning maʼrifati xalqlarning maʼnaviy-axloqiy dunyoqarashi, eʼtiqodiy masalalarining yechimida muhim rol oʻynaganligi asoslab berilgan.

Markaziy Osiyoda hadis, kalom, fiqh, tasavvuf oʻziga xos tarzda oʻzaro aloqadorlikda rivoj topdi. Oʻlkada istiqomat qilgan koʻplab olimlar mazkur ilmlarni takomiliga yetkazish boʻyicha ilmiy izlanishlar olib borganlar. Ayniqsa, tasavvuf bilan shugʻullangan mutasavvufning falsafiy-irfoniy qarashlari odam va olam munosabatlari, koinot, tabiat va jamiyat haqidagi bilimlarni yanada boyitib, inson kamolotining muhim muammolarini tadqiq etganlar.

Tadqiqotchi malomatiylikdagi “faqr” tushunchasining qalandariylikning shakllanishidagi oʻrnini ochib bergan. XI asrning tasavvuf nazariyotchisi Al-Hujviri fikriga koʻra, faqrlilik Alloh yoʻlida ulugʻ martabadir, faqrlarga esa bu yoʻlda katta xatar bor (mashaqqat). Ular Muhammad (s.a.v) ning meni miskin qilib yashat, miskin holda jonimni ol va miskinlar bilan birga tiriltir, degan soʻzlarini Alloh oldida miskinga oliy martaba borligiga ishora bor deb bilib unga amal qilganlar. Xoja Muhammad Porsoning faqrlilikni Qurʼon maʼrifatiga tayanib “moʻmin bandalarim mendan ibodat eshigini soʻrasalar men ulardan ujb²⁶ni toʻsaman, aks holda u ibodatni fasod qiladi. Mening moʻmin bandalarimdan baʼzilarining imoni boylik bilan sahih boʻlib turibdi, agar ularni “faqr” qilsam imoni buziladi. Baʼzi moʻmin bandalarimning imoni “faqr”lik bilan tuzuk, agar boy qilsam buzgan boʻlaman”²⁷, degan qarashlarini faqrlilikning diniy-falsafiy mohiyatini ochib berishda iqtibos qilib keltirgan. Malomatiylar azobga chidashning yoʻllaridan biri ularni zulm qilganlarga itoatkor boʻlish, deb qaragan. Bu koʻrsatmoq, oʻzaro boʻlmasa ham chidamoq, boʻysunmoq, kechirim soʻramoq va yaxshilik qilish bilan ifodalangan. Shu oʻrinda, oʻz-oʻzini ayblash tamoyillaridan biri shundaki, har qanday holatda ham yuz oʻgirsam ham, itoat qilsam ham, isyon qilsam ham, oʻzini ayblash malomat qilishga intilish muhim sanalgan. Shu orqali oʻz nafslarini malomat qilib uni isloh etishga ishonganlar.

Malomatiylik va qalandariylik Movarounnahr muhitida tariqatlarning takomillashuviga sayoz, noqis, chirkin tushunchalarni qalbdan supurib tashlash,

²⁶ Ujb - kishi ichida oʻzidan oʻzi xursand boʻlib, mendan zoʻr odam yoʻq deb ajablanishidir.

²⁷ Мухаммад Порсо.Таҳқиқот. Бухоро. Марказий АКМ Шарқ кўлэзмалари бўлими. INV /137 рақамли кўлэзма. (Намозов Б.Б. таржимаси) -Б.35.

ruhni nafsga qaramlik va tobelikdan qutqarib, erkinlikka yuksaltirish orqali ta'sir etgan hamda ularning tamoyillari insonparvarlashuviga xizmat qilgan. Zotan, tariqatlarda o'zlikni anglash, Haqni tanishni asosiy maqsad qilib, turli yo'llardan borganlarini inson va jamiyat uchun birlashtiruvchi, yagona maqsadga yo'naltiruvchi kuch bo'lgan.

Dissertant qalandariylik amaliyoti boshqa tariqatlar amaliyotidan farqli ravishda malomatiylikning tamoyillariga tayanganini qayd etadi. Biroq, ularda Haq bilan yakka yolg'iz qolish, uning rizoligini topish muhim ahamiyat kasb etgan. Markaziy Osiyoning hanafiylar muhiti ko'plab tariqatlar, ta'limotlarning shakllanishiga imkoniyat yaratgan. Boshqa harakatlar, oqimlar, tariqatlar qatorida o'ziga xos tarzda faoliyat olib borgan malomatiylik va qalandariylik ham "o'z nafsini" malomatga solish yo'li bilan o'zlikni tanish, nafsini tanishga undab kelgan. Malomatiylikning shakllanishi va rivojlanishi keyingi qalandariylik, darveshlikka o'xshagan harakatlar, tariqatlarning ham vujudga kelishiga turtki bo'lgan. Ayniqsa, nafsni poklash, qalb tazkiyasi, Allohni tanish uning oldida faqrlik sifatlarini o'ziga singdirish amaliyotlari insonni ruhiy-ma'naviy poklanishga, o'zini-o'zi takomillashtirish orqali haqiqatni anglashga undagan.

Malomatiylikning o'zini malomat qilish orqali maqsadga, Haq rizoligiga erishish yo'llari keyinchalik ko'plab tariqatlarga o'z ta'sirini o'tkazgan. Riyo, ujb, kibrdan yiroq bo'lishga undagan g'oyalari tariqatlarning isloh bo'lishga olib kelishda turtki bo'ldi. Qalandariylik tariqatining vujudga kelishiga ham zamin yaratdi. O'zining g'oyalari bilan mavjud ta'limotlar, qarashlarga ta'sir ko'rsatdi.

Qalandariylik har qanday riyo, kibr, ujb holatidan uzoqda bo'lishga, qalbni nafsni poklashga undashdan iborat g'oyalarni o'zida mujassam etgan. Faqrlik libosida bo'lish, Haq oldida haqiqiy faqrlikni his eta olish va shunga munosib bo'lish ularning axloqiy g'oyalardan biri hisoblangan. Shuningdek, faqrlikning avvali – qanoat, oxiri – baqo, uyi – fano, kaliti – iroda, luqmasi – sabr, toji – tavakkul, belbog'i – xizmat, kiyimi – yulduz, dini – bedorlik, ulovi – shafqat, boyligi – miskinlik, sunnati – ma'rifat, farzi – doimo Alloh zikrida bo'lishlik demakdir.

Qalandariylik negizida inson zotini ulug'lash, uni boshqa tirik mavjudotlar ichida eng a'losi, deb bilish insonga xos bo'lgan xislatlar: "insonparvarlik, bag'rikenglik, ezgulik, halollik, mehr-shafqat, o'zaro yordam, adolatparvarlik, komil insonni tarbiyalash, ilm-fan va kasb-hunarni egallash, mehnatsevarlik, sevgi-muhabbat, donolik, aqllilik, jasurlik, saxiylik, iffat, nafsni tiyish, tinchliksevarlik va qadriyatlarni tahlil qilish XIV-XV asr mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy, axloqiy hamda badiiy qarashlarida o'z in'ikosini topdi"²⁸.

Dissertatsiyada o'rta asrlarda Markaziy Osiyo qalandarlari xanafiylikka amal qilishi, solikning tariqat maqomlarini o'tab, ijtimoiy faol hayotga qaytishi hamda tashqi qiyofasi jihatidan hozirgi Eron va Turkiya qalandarlaridan farqlanishi mantiqiy asoslangan. Ular orasidagi farqlar zikr amaliyoti, hirqa turlari va e'tiqodiy qarashlar masalalarida ham namoyon bo'lgan. Markaziy Osiyoda

²⁸ Хайруллаев М.М. Ўрта Осиёда илк уйғониш даври маданияти. -Тошкент: Фан, 1994. -Б.10.

haydariylar, ishqiyilar, xarobotiylar va abdoliylar qalandariylik yoʻnalishi vakillari sifatida yakka yoki guruh tarzida faoliyat olib borgan.

Qalandariylikning Markaziy Osiyoda shakllanishi uning keng hududda faoliyat olib borishi, jamiyatdagi baʼzi illatlardan qutulish yoʻli sidq va ixlosda ekanligini xalq orasidagi amaliy harakatlari bilan targʻib qilishi uning badiiy adabiyotda yangicha badiiy tafakkurni boyitib turli darveshona, qalandarona timsollarning vujudga kelishiga sabab boʻlgan. Bu jamiyat aʼzolarida nafsni jilovlash, Alloh vasliga intilish, Haq bilan yakka qolish, insoniy fazilatlarini egallash, kamsuqum, kamtarona hayot kechirishga oʻrgatgan. Oʻzlikni anglash dunyoning foniyligini bilish chaqirganligi bilan boshqa tariqatlardan farq qilgan.

Dissertatsiyada qalandariylik gʻoyalarining asosini “faqr” va “tajarrud” tashkil etishi qayd etilgan. Ixtiyoriy faqrlik inson nafsini toʻqlik va xotirjamlikka yetkazadi deb hisoblanadi. Moddiyatni birlamchi maqsad qilmaslik, shunchaki tiriklik manbai deb bilish zarurligi uqtiriladi. Qalbni Allohdan boshqa narsalardan xoli tutish, yolgʻiz U bilangina qolish orqali Unga yetishish mumkinligini niyat qilingan. Qachonki qalb dunyo va undagi unsurlardan boʻshasa, Yaratganning ishq qalbgga singadi. Manbalarda keltirilishicha, qalandariylik tariqati yoʻnalishlari qalandarlar, deb atalmasa-da, ularning amaliyotlari qalandariya tariqatidan taʼsirlangan boʻlib, turli nomlar bilan atalgan. Ularning Markaziy Osiyo musulmonlar oʻlkasida baʼzilari, xususan, haydariylarning birinchi toifasi sunniylikka eʼtiqod qilgan boʻlsa, boshqa yoʻnalishlarda shialik unsurlari yaqqol koʻzga tashlanadi.

Hozirgi kunda qalandariylarning yuqoridagi jamoalarining aksariyati saqlanib qolmagan boʻlsa-da, ularning nomlari tarixdan joy olgan. Qalandariylikka oid manbalarda bevosita ularga duch kelish mumkin. Maʼlumotlar esa ularni teranroq tushunish va qalandariylar haqida kengroq tasavvurga ega boʻlishga yaqindan yordam beradi. Qalandariylar jahriy, malomatiylar esa xafiy zikrni afzal bilganlar. Eʼtibor berilsa, zikr masalasida Naqshbandiylikda ham turli qarashlar mavjud. Shuningdek, buning natijasida savobga ham erishishni koʻzlaydilar. Soch-soqollari qirtirlangan, yuksak tasavvufiy qarashlarni oʻz tushuncha va saviyalariga moslashtirib olgan, oila qurmay yashashni maqsad qilgan qalandarlardir. Ammo, qalandariylarning ham malomatiylarning ham maqsadi bitta – xalqning malomati orqali savobga erishish boʻlgan. Ammo ularning ushbu maqsada yoʻlidagi tutgan tartiblari boshqa-boshqa yoʻllardan iboratdir.

Dissertant mulohazalariga koʻra, soʻfiyona tariqat yoʻnalishlaridan boʻlgan qalandariylikda “riyo” va “nafs”, “ujb”ga qarshi gʻoyaviy kurash vositasi boʻlishi bilan birga oʻzida mumtoz tasavvuf anʼanalarini mujassam etgani bilan ham boshqa baʼzi tariqatlardan ajralib turadi. Shu bilan birga qalandariylik insonning ruhiy-maʼnaviy olamini tarbiyalovchi vositalardan biri sifatida ham eʼtirof etilayotganining sababi axloqiy kamolot, insoniy birdamlik, qanoat va maʼnaviy taraqqiyot namunasi oʻlaroq qaralgan. Oziga qanoat qilish, yoʻgʻiga sabr qilish fazilatlarini tarbiyalagan. Markaziy Osiyoda haydariylar, ishqiyilar, xarobotiylar va abdoliylar qalandariylik yoʻnalishi vakillari sifatida yakka yoki guruh tarzida faoliyat olib borgan. Markaziy Osiyoda qalandariylik jamiyatning turli qatlamlarida, jumladan, shariat va tasavvuf vakillari orasida avj olgan riyo,

hashamatga berilish kabi illatlardan norozilikning ifodasi sifatida yuzaga kelgan. Jamiyatdan chetlashish hamda nafsni isloh qilish yo'lida qalandariylikdagi asosiy tamoyillar "sidq" va "ixlos"ga e'tibor qaratilgan.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi "**Malomatiylik va qalandariylik tariqatlarining ma'naviy-axloqiy ahamiyati**" deb nomlangan bo'lib, bunda tasavvuf hikmati va malomatiylik g'oyalarning inson komilligini ta'minlashdagi o'rni, Markaziy Osiyo so'fiylik tariqatlari axloqiy tamoyillarining yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatiga qaratilgan masalalar tahlil etilgan.

Axloq, odob masalalari barcha falsafiy maktablar, dinlar, ta'limotlarning ajralmas qismi sifatida qadimdan o'rganib kelingan. Tariqatlarning evolyutsiyasi axloq va odob masalalari bilan birga, axloqiy munosabatlar tizimiga, ijtimoiy borliqqa o'ziga xos ta'sir ko'rsatgani, malomatiylik va qalandariylik ham o'ziga xos g'oyalarni targ'ib qilishda Markaziy Osiyo tariqatlariga o'z ta'sirini ko'rsata olgan harakatlardan hisoblanadi. Dunyoning foniyligini bilish va uni butga aylantirmaslik, o'tkinchi olam ish va tashvishlari deb mehr-muhabbat, shafqat va muruvvat talablaridan aslo chetlashmaslik-bular islomiy asoslar bo'lib, tasavvuf taraqqiyoti uchun alohida ahamiyat kasb etgan. X ayniqsa XII asrlarga kelib esa salbiy o'zgarish, e'tiqoddagi buzilishlar ustunlik qila boshlagan. So'fiylikda soxtakorlik, makr, hiyla va riyo avj olgan.

Tadqiqotda "suluk (yo'l, tariq.) bu odob va axloq tarbiyasidan iboratligi ta'kidlangan. U xatti-harakatlarni tuzatish, dunyoni bilishni o'rgatishdir. Unda solik (ya'ni, inson, sulukka kirgan solik) o'z nafsini, chiniqtiradi va tarbiyalaydi. Ichki va tashqi (zohiriy va botiniy) olamini poklash jarayonini boshdan kechiradi. O'zini vasl holatiga tayyorlaydi"²⁹, - degan tasavvuf hikmati xususidagi mutasavviflar fikri tahlil etilgan. Shu bilan birga, tasavvuf evolyutsiyasini o'rganishda malomatiylik va qalandariylik bilan aloqadorlik jihatlarini aynan "riyo", "kibr"dan tiyilish, nafsni tarbiyalash tamoyillaridan izlangan. Islom olamidagi o'nga yaqin tariqatlar va tarmoqlar malomatiylikdan quvvat olib yoki uning ta'sirida vujudga kelgan. Kubraviya tariqati ham shular julasidandir. Alisher Navoiy mansub bo'lgan naqshbandiylik tariqatida zikri xufiya usulining tanlanishi bevosita malomatiylik bilan bog'liqligi e'tirof etilgan³⁰. Malomatiy ulug'likdan, da'vodan o'zini ko'z-ko'z qilishlardan, xalqning olqishi va ehtiromini qozonish ilinjidan kechgan, karomat iddaosidan yiroq, boshqalarni o'zidan ustun ko'rgan, xalqdan hech bir tarzda ajralmagan, zikrga, vajdga, intilmagan, halol mehnat bilan kun o'tkazgan Botinan Haq va Zohiran xalq bilan bo'lgan kishi hisoblangan. Tariqat odobida ko'zda tutilgan tamoyil uning har ikki olami barobar faoliyatda bo'lishini talab qiladi. Chunki, insonni zohirga berilib botinni unutsa, o'z his tuyg'ulari ichki, ma'naviy-axloqiy, ruhiy intizom buzilsa, kamol o'rnini zavol egallashi ehtimoli ko'paygan. Zikr asosi bo'lgan xilvat o'z mohiyatini yo'qotgan. Shuning uchun u xalq bilan zohiriy va Haq bilan botiniy aloqada bo'lishi eng muhim amaliyot hisoblangan.

²⁹ Qarang: Хожа Муҳаммад Порсо. Таҳқиқот. - Бухоро. Марказий АКМ Шарқ кўлёмалари бўлими. INV /137 рақамли кўлёмза.

³⁰ Шайх Нажмиддин Кубро. Тасаввуфий ҳаёт. – Тошкент: Мовароуннаҳр, 2004.-Б.227.

O'tgan asrda sho'ro mafkurasi o'rta asrlarda yashab ijod etgan O'rta Osiyolik allomalar ilmiy, diniy-falsafiy, tasavvufiy asarlarini xurofiy ijod mahsuli sifatida qoralab, ularni tadqiq etishga yo'l qo'ymagan. "O'rta asrlarda keng tarqalgan tasavvuf, so'fiylik, tasavvuf oqimining vakillari bo'lmish so'fiylar mehnat qilmasdan, gadolik va xayr-ehson bilan kun kechirganlar, darbadar yurib xurofiy va mutaassiblikni tarqatganlar"³¹. Tasavvufning haqqoniy mazmuni, ma'nomohiyati, bugungi kundagi ziyorat turizmi turkumida so'fiy shayxlarning qadr-qimmati, hurmatlari joyiga qo'yilayotgani, meroslari chuqur o'rganilmoqda.

Dissertatsiyada Sharq falsafiy tafakkuri tarixining muhim tarkibiy qismi hisoblangan tasavvuf madaniyatimiz tarixida muhim o'ringa ega bo'lgani, uning ijtimoiy ong va falsafiy tafakkur rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatgani, adabiyot va san'at, badiiy tafakkurga g'oyaviy manba bo'lib, ma'naviy-axloqiy, umuminsoniy qadriyatlarni o'zida jamlaganligi mutasavvif allomalar asarlarining tahlili asosida isbotlangan. Tasavvuf, ibodat, riyozat, Haq sevgisi, ma'rifat bilan qalbni tasfiya etish, o'z borlig'ini haqiqiy ishqqa bag'ishlash, dilni mosivodan qutqazish, Allohning barcha amrlarini bajarish, ta'qiqlangan ishlardan uzoqlashishdir. Tasavvuf xudbinlik, manmanlik, zohiriy yutuq va muvaffaqiyatlarga taslim bo'lishni yengib, himmat va shafqat, marhamat va sadoqat yo'lidagi xizmatdir. Tasavvuf lof to'qish, so'zbozlik qilish, o'zni ko'z-ko'z etish o'rnida samimiyat, ixlos, hikmat va irfonni anglash tajribasi ekanligini uqtirgan.

Insonning qadr-qimmati, uning o'z hayoti va jamiyat hayotidagi bashariy mavqei, ko'p jihatdan axloqiy mezonlar bilan o'lchanadi. Xulq-atvor go'zalligi odam ziynati bo'lishi bilan birga uning yon-atrof, olamga bo'lgan munosabatining in'ikosidir. Zero, inson koinotda mukarram va o'zicha bir olamdir. Ajdodlarimiz shuning uchun ham insonni har tomonlama chuqurroq o'rganishga, fazilat va xislatlarini, hissiyot va tuyg'ularini tarbiyalashga alohida e'tibor qaratganlar. Markaziy Osiyoda shakllangan va faoliyat yuritgan tariqatlar islom zamirida vujudga kelgan ma'naviy-axloqiy g'oyalarni o'ziga singdirib turli xalqlar ijtimoiy-madaniy hayotiga kirib borgan. Uning axloqiy tarbiya usullari, vositalari va tajribalari zamonaviy jamiyatda yosh avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Tarixdan ma'lumki, IX-X asrlarda islomdagi turli oqimlar asta-sekin tasavvufga murojaat qilib boshladilar. Ijtimoiy hayotga yaqinlashtirish bu islom shariatidagi mavjud me'yorlarni tasavvufiy ruh bilan uyg'unlashtirib, keng xalq qalbiga singib borishi ta'minlashdir. Ajdodlarimizning boy ma'naviy merosi ham madaniyatimiz tarixida muhim hissa bo'lib qo'shilgani ayni haqiqatdir. Bu buyuk mutasavvufimizning ibratomuz shaxsiyati va hayot tarzi, betakror ilmiy merosi insoniyatni ezgulikka, farovonlikka undovchi, hayot qadri, odam qadri, baxt va saodat, komillik kaliti haqidagi g'oyalari bugungi kunlarimizning saodatini yanada teranroq mushohada qilishda, mas'uliyat hamda burchlarimizni belgilab olishda muhimdir. Zero, ma'naviy barkamol inson aql va fazilat birligiga, ruh va qalb xotirjamligi birligiga amal qiladigan kishidir. Shu ma'noda, tasavvuf va uning

³¹ Qarang: Ислам: справочник // М.А.Усмонов тахрири остида. -Тошкент. Ўзбек Совет Энциклопедияси бош редакцияси. -1987. -Б.158-162.

tariqatlari ham insonni ana shunday ulug'vor birliklar sari yetaklovchi g'oyaviy-irfoniy maslak zamirida vujudga kelgan o'ziga xos falsafa desak, xato bo'lmaydi. IX-XII asrlarda Markaziy Osiyodagi tasavvuf tariqatlari yangi ilg'or g'oyalari ham futuvvat, javonmardlik, insonparvarlik, jamiyatni insonparvarlashtirish masalasi asosiy yo'nalishga aylandi. Movarounnahr va Xuroson shaharlarida X asrdan boshlab javonmardlik harakati va futuvvat g'oyalari ancha keng yoyilgan. Javonmardlar muayyan qoida-talablarga rioya etar, ma'naviy va jismoniy yetuklikka intilib, qayerda bo'lmasinlar va qanday amal bilan mashg'ul bo'lmasinlar, o'zlarida mardlik va oliyjanoblik namunasini ko'rsatar, zulm va haqsizlikka qarshi kurashar, xo'rlanganlar va tahqir etilganlarni himoya qilardilar. Ular nazdida dunyo boyligi emas, balki inson qadri ustun turgan, javonmardlar oltin-kumushni nazar-pisand qilmaganlar, balki uni ma'naviy taraqqiyot uchun bir vosita deb qarashgan. Islom dinida Haqqa xizmat qilishning asosiy yo'li sifatida amaliy, faol insonparvarlikka e'tibor qaratilgan.

Tasavvuf ta'limotida ma'naviy-axloqiy fikrlar, umuminsoniy qadriyatlar va insonparvarlik g'oyalari keng o'rin olgan. Tasavvuf ta'limoti insonparvarlik g'oyalari asosiy o'ringa qo'yuvchi va targ'ib etuvchi falsafiy ta'limotlar bilan aloqadorlikda rivojlangan. Insonparvarlik tushunchasi tasavvufga oid birlamchi manbalar va asarlarda to'g'ridan-to'g'ri uchramasa-da, futuvvat, javonmardlik, saxiylik kabi turli ma'nolarda qo'llanilgan. Futuvvat, javonmardlik g'oyasi bugungi kun kontekstida ishlatiladigan insonparvarlik tushunchasining mazmunini to'liq qamrab olmasa-da, o'z davrida tasavvuf tariqatlarida mardlik, javonmardlik, saxovat, barcha insoniy fazilatlarni o'zida mujassam etgan xos ahli (so'fiylar) ning axloqi bo'lgan.

Dissertatsiyada hozirgi kunda jamiyatimizda kishilar orasida ko'plab illatlar, ayniqsa, yoshlar orasida uchraydigan ichkilikka berilish, hoyu-havasga, quruq davolarga, ildizsiz donoliklarga ruju qo'yish oddiy holatga aylangani ko'rish mumkinligi qayd etilgan. Bularning qalblarini ongu-tafakkurini ham muolaja qilishda ajdodlarimiz merosi muhim ahamiyatga ega. Ba'zan inson nafsga tobe' bo'lib, luqmaga e'tibor bermay qo'yadi. U nafaqat ichkilik balki tanovvul qilayotgan narsasida ham ehtiyotkorlikni unutadi. Ajdodlarimizning merosida ilgari surilgan g'oyalar insonning komillikka erishishi oladigan nafasidan, oziqlanadigan narsasigacha toza bo'lishi nazarda tutiladi.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, tasavvufiy-falsafiy ta'limotlar rivojining madaniy asoslarida xalqlarning ma'naviy merosi va muqaddas qadriyatlarining katta qismini islom ma'naviyati va milliy an'analar tashkil etadi. Diniy qadriyatlarining manbalari esa Qur'oni karim, hadisi sharif, tafsirlar, shariat ahkomlarida o'z ifodasini topgan. Islomiy merosning muhim qismini irfoniy meros bo'lmish tasavvuf ta'limoti va qadriyatlari tashkil etadi. Tariqatlarning evolyutsiyasi axloq va odob masalalari bilan birga, axloqiy munosabatlar tizimiga, ijtimoiy borliqqa o'ziga xos ta'sir ko'rsatganini kuzatish mumkin. Malomatiylik va qalandariylik ham o'ziga xos g'oyalarni targ'ib qilishda tariqatlarga o'z ta'sirini ko'rsata olgan harakatlardan hisoblanadi. Tasavvufning bosh g'oyalari biri

“o‘z-o‘zini tanish” ya‘ni inson tariqat yo‘lidan borib o‘zini har tomonlama takomillashtirishga erishadi. Shu jarayonlarda uning o‘z Robbiysini tanishga bo‘lgan intilishi uni natijada o‘z “nafsini” tanish bilan yakun topadi. Insonning qalb va nafs kabi borlig‘i sifat o‘zgarishiga o‘tadi. Kamolot tomon yuksaladi. Axloqi islohga kelib, eng yaxshi sifat va fazilatlar bilan ziynatlanadi. Uni Haq ziynatlab atrofida gilardan xoslaydi. Tariqatning amaliy qismi shunday tarbiyaviy usullar yordamida, islomiy tamoyillarga tayanib ushbu natijalarga olib keladi. Shu ma‘noda yer yuzida ezgulik, yaxshiliklar bo‘lishini ta‘minlash inson zimmasida ekanini ham tushuntiradi.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi nazariy xulosalarga kelingan:

1. Movarounnahr va Xuroson o‘lkalarida o‘zaro bog‘liq va yagona ildizlariga ega bo‘lgan falsafiy-irfoniy qarashlarning shakllanishida, bu zamindagi azaliy an‘analar, urf-odatlarining uyg‘unlashuvi, madaniy rivojlanish, ilm-fan, ma‘rifatni ulug‘lash, e‘tiqod mustahkamligiga erishishga intilish, turli xalqlar o‘rtasida barqaror ijtimoiy muhitning vujudga kelishi bilan xarakterlanadi. Shu bilan birga, islom omili o‘rta asrlarda kishilar turmush va tafakkur tarziga singib borib, ijtimoiy-ma‘naviy hayotda shariat tartiblari asosidagi hayot tarzini shakllantirishga olib kelgan.

2. Islom ta‘limoti va falsafasining tarmog‘laridan biri, Sharq falsafiy tafakkurining tarkibiy qismi hisoblangan tasavvuf o‘ziga xos ma‘naviy hodisa sifatida Movarounnahr mintaqasida madaniy-ma‘naviy hayotga va ijtimoiy ongga kuchli ta‘sir ko‘rsatgan. IX asrdan boshlab musulmon olamida ayniqsa, Markaziy Osiyoda xilma-xil toifa so‘fiylik maktablarining vujudga kelishi hanafiylikning mo‘tadil tamoyillari, bag‘rikenglikka undovchi g‘oyalarning yoyilishi, xalqlarini yagona g‘oya atrofida birlashtiruvchi xususiyati bilan ham xarakterlanadi.

3. Malomatiylik va qalandariylik tariqatlarining Markaziy Osiyoda vujudga kelishi, tarqalishi, taraqqiyot omillari, tanazzuli sabablari Sharq va G‘arb olimlari tomonidan o‘rganilishining metodologik muammolari, malomatiylik va qalandariylikning asl mohiyati, uning tasavvuf tariqatlari tizimidagi o‘rni va o‘zaro ta‘siri, mintaqaviy xususiyatlari, amaliyoti bilan bog‘liq masalalarni ilmiylik tamoyillari, zamonaviy yondashuvlar asosida xolis o‘rganish tasavvuf tariqatlari g‘oyalari ildizlarini chuqurroq bilish imkoniyatini yaratib madaniyatimiz negizlariga yetib borishni ta‘minlaydi

4. Tasavvufiy ta‘limotlar o‘z mohiyati bilan diniy-falsafiy ta‘limotlar sirasiga kiradi. Alloh, olam, tabiat, inson, jamiyat to‘g‘risidagi ontologik masalalar tariqatlarning nazariy va amaliyotida markaziy muammo, g‘oya sifatida qabul qilinishi ularning falsafiy-irfoniy ta‘limot ekanligini anglatadi. Allohni va uning yaratmalarini bilishda ratsional tafakkur bilan bir qatorda irratsional tafakkur tamoyillarini takomillashtirish, amaliyot va nazariyani birlashtirish hamda ijtimoiy ongga tatbiq etishda tariqatlar vakillarining qarashlari muhim rol o‘ynagan.

5. Tasavvufiy tariqatlar turli qatlam kishilari ma'naviy ehtiyojlariga javob berib bilganligi sababli uzoq muddat mamlakatlarda ijtimoiy-siyosiy tafakkurga ta'sir qila oldi. Ijtimoiy muhitga moslashib ularga turli munosabatlarda bo'ldi. Muayyan tariqatlar ilk rivojlanish bosqichlarida hukmron siyosiy tizim va mafkuraning ijtimoiy adolatsizligiga qarshi norozilikni ifodaladi. Oddiy kishilar, mehnatkash xalq orzu-umidlarini ifodalab va ularning manfaatlarini himoya qiluvchi, o'z davri hukmdorlarini adolatga chaqiruvchi ta'limotlar qatorida o'zini namoyon qildi.

6. Islom va uning ahli sunna va jamoa e'tiqodi asosida Markaziy Osiyoda shakllangan tariqatlar zamirida shakllangan malomatiylik va qalandariylik inson va uning imkoniyatlari xususidagi qarashlarga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Alloh vasliga erishish g'oyasini targ'ib etib, kishilarni ma'rifatga, haqiqatga ikki olam saodatiga olib boruvchi yo'llarni ishlab chiqqan. Umumbashariy mohiyatga ega bo'lgan "komil inson" shaxsini shakllantirishning so'fiyona tamoyillari, normalarini ishlab chiqib keyingi davrlar uchun ham barkamol avlodni tarbiyalashda ham o'zining ahamiyatini saqlab qolmoqda.

7. Musulmon dunyosida ma'naviy madaniyatning rivojlanishi, Sharq Uyg'onish davrining qaror topishida Markaziy Osiyodan chiqqan mutafakkirlar, mutasavviflar qarashlari, ta'limotlari ham muhim harakatlantiruvchi rol o'ynagan. Hakim at-Termiziy, Imom G'azzoliy, Ahmad Yassaviy, Abu Bakr Kalobodiy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband kabi mutasavviflar malomatiylik va qalandariylik ta'siri asosida tasavvuf ta'limotining umuminsoniy mohiyatini ko'rsatib berganlar. Bu tarixiy haqiqatni jahon ilm ahli va dunyo hamjamiyati tan olmoqda.

8. Malomatiylik va qalandariylik ko'plab manbalarda harakat sifatida tilga olingan. IX asrning ikkinchi yarmida Nishopurda zohidlik ko'rinishida paydo bo'lgan, asosiy g'oyasi "nafs"ni jilovlash va jismni "riyozat" chekib chiniqtirishdan iborat. Uning asoschisi Abu Solih Hamdun ibn Ahmad ibn Ammor Qassor (vaf. 884.) u Horis Muxosibiy (vaf. 857) qarashlariga asoslangan. Ushbu harakat deyarli barcha Movarounnahr va Xuroson so'fiylariga o'z ta'sirini ko'rsatgan.

9. Malomatiylikka mansub toifalarni turli zamondosh firqa va toifalardan ajratib turuvchi jihatlari ular Alloh huzurida "ixlos" ga erishish maqsadida "nafs" ni gunohlar, ayb ishlar va noqis illatlardan poklashga intilishlarida ko'rinadi. Malomatiylikning asosiy tamoyillarida maxsus kiyimga burkanib olmaslik, jahriy zikrdan xafiy zikrni afzal ko'rish, maqsadsiz darbadar yurishdan qaytarish, ortiqcha parhezkorlik qilmaslik kabi xususiyatlari o'rta asrlarda o'ziga xos nufuzga ega bo'lgan tariqatlarga, xususan, naqshbandiya tariqatiga o'z ta'sirini ko'rsatgan va naqshbandiylik ushbu tamoyillarni o'zlashtirilgan.

10. Markaziy Osiyoda qalandariya (qalandariylik, qalandarlik) harakati yoki tariqatining XI-XII asrlarda malomatiylik negizida vujudga kelganligi manbalarda qayd etilgan. Uning bu o'lkada keng yoyilishi hanafiya muhitining shakllanganligi bilan ham bog'liq. Qalandarlik, uyushgan va ma'lum qonun-qoidalar asosida

maxsus liboslar kiyib yurishi, shakllari, kiyinishlari bilan ajralib turishi tarki dunyo qilgan darveshlarga ham o'xshagan. Qalandarlar orasida diyonatlilari ham riyokorlari ham bo'lgan. Ularning ko'pi mujarrad, ya'ni, uylanmagan bo'ydoqlardan iborat bo'lgan. Qalandarlar aynan mana shu uylanmasliklari va tilanchilik qilishlari uchun ba'zi mutasavviflar tomonidan tanqid ostiga olingan.

11. Qalandariylik "riyo"ga qarshi turish va "nafs tarbiyasi"da malomatiylik bilan o'zaro ta'sirga va bog'liqlikka ega bo'lgan. Ularning riyodan qochish, nafsni qiynash orqali yoki uni malomatga solish orqali poklash usulublari yaqinlik kasb etgan. Malomatiylik va qalandariylik mansub kishilar odamlarning malomatidan cho'chimaslik, ularga yaxshi ko'rinishga intilish riyoni oldini olish, ruhni poklash, botiniy ibodat, uni soflash, qalbni isloh qilish qalandarlarning asosiy maqsadlari bo'lgan. Ular xulq odoblaridagi ijobiy jihatlarni imkon qadar sir tutishga, qilgan amallarini bildirmaslikka, gapirmaslikka urinib, qilgan gunohlarini tan olishni fazilat deb bilganlar. Allohga bo'lgan muhabbatlari, botiniy ibodatlari, "qurbat" larini sir tutganlar.

12. Qalandarlarning talabchanligi haqiqat uchun kurashish edi, riyozati esa xonaqoh va ko'cha-ko'ylarda qalandarona qo'shiqlar vositasida o'z ifodasini topgan. Qo'shiqlarining mazmunida asosan diniy tasavvufiy g'oyalar bo'lgan va bu tasavvuf g'oyalarining targ'ib-tashviqi uchun ishlab chiqilgan, qalandariylik ma'lum g'oyalarga moslashtirilgan bir tadbirga aylangan. Darvesh va qalandarning xalq orasidagi faoliyati oddiy tilanchiliklardan farq qilib, ular she'r va qasidalar o'qish vositalari tufayli tasavvuf ta'limotining yoyilishiga va uni manzur etishga yordam bergan, so'fiylik tariqatini ommalashtirish, aholini tariqatga jalb etishga undagan.

13. Inson taqdiri va tarbiyasi dunyodagi hamma diniy, axloqiy, falsafiy ta'limotlarning markazida turgan. Tasavvuf, Attor, Rumi, Yassaviy, G'ijduvoniylar mansub tasavvuf, darveshni vali, ahmoqni esli, qulni sulton, qatrani ummon qilgan. Tasavvuf mahdudlik, ma'naviy ko'rlikni qoralagan, nafs zug'umi, dunyo hirsini xarob holga yetgan qalb husni mutlaq ishqidan yangilanadi va ko'rkamlashadi, sayoz, kir tushunchalarni yurakdan tozalab tashlash, ruhni nafsga qaramlik va tobelikdan qutqazish, erkinlikka yuksaltirish mutasavvufning bosh maqsadi hisoblangan. Shu ma'noda, malomatiylik va qalandariylik Movarounnahr muhitida tariqatlarning takomillashuviga, tamoyillarining insonparvarlashuviga xizmat qilgan.

14. Zamonaviy jamiyatda ba'zi shaxslar tariqatni mansab, mol-dunyo orttirish, muridbozlik manbasi sifatida qarayotgani ma'lum. Yoshlarning bilib-bilmay, islomiy asosga ega bo'lmagan bu norasmiy tuzilmalarga aralashib qolishi, soxta "shayx"larning tavsiyalariga ko'r-ko'rona ergashish holatlari mavjud. Shu ma'noda, yoshlar ta'lim-tarbiyasi bilan bog'liq tizimlar, o'z-o'zini boshqarish organlari, barcha ziyoli pedagoglarni bunga jalb qilish, tasavvuf ta'limotini noto'g'ri talqin qiluvchilar faoliyati muntazam ravishda xolisona ilmiy tahlil qilib, obyektiv baho berib borilishi lozim.

Tadqiqot natijasida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan:

1. “Tasavvuf ilmi maktabi” tinglovchilari uchun “Tasavvufda malomatiylik va qalandariylik g‘oyalari” nomli o‘quv qo‘llanma tayyorlash;
2. Mahalliy va xorijiy kutubxona fondlaridan malomatiylik va qalandariylikka doir risolalar, kitoblarni aniqlash va ularning elektron katalogini yaratish;
3. O‘zbekiston tarixi kanalida “Markaziy Osiyo ijtimoiy-falsafiy fikri tarixi” nomli falsafiy-tarixiy turkumdagi ko‘rsatuvlar dasturini ishlab chiqish va uni yil davomida uzatib borish;
4. Ma’naviyat va ma’rifat markazlari targ‘ibot ishlari doirasida malomatiylik va qalandariylik g‘oyalari asosida “Riyo va kibr inson ma’naviyati zavoli” nomli targ‘ibot risolalari tayyorlash;
5. Ziyorat turizmi doirasida Yetti Pir qadamjolari muzeylarida qalandarlar, malomatiylarning maxsus kiyimlari, aso, kashkul va boshqa narsalarini muzey eksponatlari sifatida suratlarini joylashtirish loyihalarini ishlab chiqish.
6. Viloyatlardagi imomlar va otin ayollar uchun tasavvufning axloq-odob normalari va xalqimizning ma’naviy hayotida unga amal qilish tamoyillari mavzusida o‘quv seminarlar tashkil etish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ DSc.03/27.02.2020.F.72.08 ПРИ
БУХАРСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

УЗБЕКСКО-ФИНЛЯНДСКИЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

ЯЗДОНОВ ЗИКРИЛЛО ШУКУРИЛЛОЕВИЧ

**ВЛИЯНИЕ ИДЕЙ МАЛОМАТИЯ И КАЛАНДАРЯ НА РАЗВИТИЕ
ТАСАВВУФ ТАРИКАТОВ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ**

09.00.03 – История философии

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (DSc) ПО ФИЛОСОФСКИМ НАУКАМ**

Бухара – 2024

Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2023.4.DSc/Fal213.

Диссертация выполнена в Узбекско-Финляндском педагогическом институте.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме) на сайте Ученого совета (www.buxdu.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный консультант:

Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор

Официальные оппоненты:

Наврүзова Гулчехра Негматовна
доктор философских наук, профессор

Хошимхонов Мумин
доктор философских наук, профессор

Сиддиков Илѳсжон Бахромович
доктор философских наук, доцент

Ведущее учреждение:

Навоийский государственный педагогический институт

Защита диссертации состоится « 11 » Ноябрь 2024 г. в « 9:00 » часов на заседании Научного совета DSc.03/27.02.2020.F.72.08 по присуждению ученых степеней при Бухарском государственном университете. (Адрес: 200114, г. Бухара, ул. М. Икбол, 11. Тел.: (65) 221-29-14; факс: (65) 221-57-27, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного университета (зарегистрирован под № 532). (Адрес: 200114, г. Бухара, ул. М. Икбол, 11. Тел.: (65) 221-25-87.)

Автореферат диссертации разослан « 30 » Октябрь 2024 года.

(Протокол реестра № 17 от « 30 » Октябрь, 2024 г.).



Намозов Б.Б.

Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философских наук, профессор

Шарипов А.З.

Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философских наук, профессор

Сафарова Н.О.

Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор философских наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философских наук (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В условиях современной глобализации развитие философского мышления в мире показывает, что оно связано с развитием прагматических идей по поднятию духовной культуры и созданию основы для спасения человечества от нравственного упадка. В частности, она направлена на совершенствование принципов гуманности, связанных с опытом тариката в ирфон-философских воззрениях средневековых мыслителей и просветителей, уничтожение похоти и высокомерия аскетизмом и благочестием, упрека, взывающего людей из животных низов до человеческих высот, раста спроса на идею быть «с людьми внешне, с Истиной в сердце». С этой точки зрения, актуальным является раскрытие влияния маломатия и каландария на духовную, социокультурную среду народов Центральной Азии и роль объединения разных народов вокруг единого дела и идеи, их место в преобразовании духовного бытия человека.

В мировой науке исследуются тасаввуф тарикаты, их содержание и сущность, история возникновения, становление суфийских тарикатов, место маломатия и каландария в системе суфийских тарикатов, причины их возникновения и распространения, развития и упадка. В частности, важно провести обширные философские исследования философских основ маломатии, ее влияния на идеи тасаввуф и идеи тариката, ее специфических аспектов, взаимосвязи ирфон-философских проблем с каландария, философских детерминантов ее культурного развития. Все больше возрастает актуальность в научно-теоретическом определении средневековой идеи маломатия и каландария быть «в сердце с Истиной, снаружи с народом», введение в историю тасаввуф и философии понятий «танасух/гармония», «иттихад/единение», «хулуд», соотношения между идеей единства (вахдат) и многообразия (касрат) бытия, имеющие единые корни понимания абсолютной истины.

Формирование просвещенного общества в нашей стране, коренные изменения в социально-экономической и духовной сферах, тщательное изучение корней культуры, истории и мысли нашего народа стали одним из главных приоритетов государственной политики. «Мысли таких просветителей как Имам Бухари, Имам Тирмизи, Имам Газали, Бахауддин Накшбанд, Абу Наср Фараби, Джалалиддин Руми, Абдуррахман Джами, Ахмад Яссави о воспитании нафса и моральном совершенствовании во многом помогли в формировании национального сознания и разума. В их произведениях выражены такие понятия как патриотизм, любовь и доброта, терпение и довольство, справедливость, честность и чистота, непредательство чьего-либо доверия и собственности. ...в учении тасаввуф вопросу «добродетельный человек», «совершенный человек» уделяется большое внимание»¹. Поэтому в духовно-нравственном подъеме молодежи

¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. - Тошкент: "O'zbekiston", 2021. - Б.421.

важно раскрыть суть учения тасаввуф, призывающего человека к совершенству, расширяющего мировоззрение просвещенного человека, борющегося с деструктивными экстремистскими и радикальными течениями.

Настоящее диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, указанных в Указах Президента Республики Узбекистан №УП-158 от 11 сентября 2023 года «О стратегии Узбекистана – 2030», №УП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», №УП-6108 от 6 ноября 2020 года «О мерах по развитию сферы образования и науки в новый период развития Узбекистана», №УП-6255 от 1 июля 2021 года «Об утверждении Национальной стратегии Республики Узбекистан по борьбе с экстремизмом и терроризмом на 2021-2026 годы», Постановлениях №ПП-3080 от 23 июня 2018 года «О мерах по созданию Центра исламской цивилизации в Узбекистане при Кабинете Министров Республики Узбекистан», №ПП-3907 от 14 августа 2018 года «О мерах по воспитанию молодежи духовно, морально и физически совершенной, а также поднятию качества ее системы образования на новый уровень», №ПП-5040 от 26 марта 2021 года «О мерах по коренному совершенствованию системы духовно-просветительского дела», а также Постановления Кабинета Министров №723 от 17 ноября 2020 года «Об организации деятельности общественных советов по обеспечению межнационального согласия, толерантности и солидарности» и определенных в других нормативно-правовых документах, относящихся к данной области.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий Республики I. «Формирование системы социальных, правовых, экономических инновационных идей информационного общества и демократического государства и пути их реализации».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации². Фундаментальные научные исследования по таким вопросам как изучение ирфон-философских идей тасаввуф и их влияния на общественное сознание, проводятся в ведущих мировых научных центрах и высших учебных заведениях, в том числе в Высшем исламском совете Америки (США), Университете Западного Онтарио (Канада), Университете Дисле (Турция), Университете Аль-Азхар (Египет, Каир), Школе культуры, религий и политики в Азии (Великобритания), Институте исследования мира во Франкфурте, Центре научных исследований гражданского общества (Германия), Санкт-Петербургском государственном университете (Россия), Международной исламской академии Узбекистана, Центре исламской цивилизации в Узбекистане, Бухарском государственном университете,

² Обзор зарубежных исследований по теме диссертации подготовлен на основе электронных источников <https://www.en.hs-furtwangen.de>; <https://www.en.uni-muenchen.de>; <https://www.univ-lille.fr>; <https://www.ise.edu>; <https://www.umich.edu>; <https://www.doshisha.ac.jp>; <https://www.utoronto.edu>; <https://www.cbu.ca>; <https://www.unn.ru>; <http://library.fes.de/>; <https://www.ritsumei.ac.jp/> и др.

Самаркандском государственном университете, Узбекско-Финляндском педагогическом институте, Национальном университете Узбекистана, Ташкентском государственном университете востоковедения (Узбекистан).

В научных исследованиях о влиянии среднеазиатских ирфон-философских воззрений, общетасаввуф воззрений и критериев совершенства, способствующих знанию, мудрости, наблюдательности и просвещению, на духовное развитие человека были получены следующие научные результаты: ретроспективный подход к религиозному мировоззрению, его неотъемлемая часть - наука тасаввуф. Научно обоснованы эзотерические и теомифологические представления, диахронические и синхронные коммуникативные отношения в религиозных воззрениях народов Центральной Азии; выявлено влияние культурных, религиозных, этнодемографических аспектов, национально-культурных связей народов Центральной Азии с мировым сообществом на общественное развитие; разработаны основы обновления учения тасаввуф и подход к его изучению; влияние социально-этических взглядов представителей учения тасаввуф и идей классического суфизма на человеческое совершенство; исследовано научное и духовное наследие маломатии, каландарии и других тарикатов.

